2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 38 (1364), 2025-yil 22-fevral, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# MAMLAKATIMIZ MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTDAN KENG FOYDALANISH MUHIM

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-fevral kuni Mudofaa sanoati agentligining Innovatsion texnologiyalar markaziga tashrif buyurib, bu yerdagi ishlab chiqarish quvvatlari, ilg‘or ishlanmalar, harbiy va ikki xil maqsadga mo‘ljallangan mahsulotlar bilan tanishdi.**





Armiya qobiliyatini mustahkamlashda harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligi bilan bir qatorda mudofaa sanoatini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan O‘zbekistonda zamonaviy mudofaa sanoatiga asos solingani tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Mudofaa vazirligi huzuridagi agentlik tomonidan qurol-yarog‘larni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va istiqbolli ishlanmalarni qo‘shinlarda joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Innovatsion texnologiyalar markazida 80 ga yaqin harbiy va ikki xil maqsadga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, robototexnika va uchuvchisiz apparatlar bo‘yicha startap loyihalari qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Tashrif chog‘ida harbiy texnikaning yangi namunalari, mudofaa sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli loyiha va rejalar taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari bu birinchi qadamlar bo‘lganini aytib, mudofaa tizimining raqobatbardoshligini oshirib borish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Ishlab chiqarishni muntazam takomillashtirib, yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish, bunda innovatsion texnologiyalar va sun’iy intellektdan keng foydalanish muhimligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, buyurtma asosida sohaga xususiy sektorni kengroq jalb etib, harbiy va ikki xil maqsadga mo‘ljallangan mahsulot turlarini ko‘paytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Yangi ish o‘rinlari yaratish, mutaxassislarni tizimli tayyorlash, yangi texnikalar bo‘yicha ilmiy laboratoriyalar tashkil etish masalalariga e’tibor qaratildi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mudofaa sanoati korxonalari xalqaro ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmalarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, joriy yilning 17-21-fevral kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Abu-Dabi shahrida bo‘lib o‘tgan “IDEX-2025” ko‘rgazmasida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 100 dan ortiq harbiy texnika va mahsulotlar namunalari namoyish etildi. Jumladan, “Arslon 8×8” va “Arslon 6×6” zirhli transportyorlar, “To‘fon” o‘ziyurar gaubitsasi xorijiy hamkorlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Tashrif yakunida Prezidentimiz mudofaa sanoatini yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ko‘rsatib, mutasaddilar oldiga mahsulotlarning yuqori sifatini ta’minlash, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va mahalliy korxonalarning xalqaro bozordagi o‘rnini mustahkamlash yuzasidan aniq vazifalar qo‘ydi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining davlat harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Majlisda Xavfsizlik kengashi a’zolari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar rahbarlari, okruglar qo‘mondonlari hamda joylardagi studiyalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi Raislari, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari mas’ullari ishtirok etdi.

Yig‘ilish avvalida mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasida qilingan ishlar va ularning natijalari hamda yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi.

Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta’minlanayotgani, harbiy xizmatchilarning jangovar va ma’naviy tayyorgarligi sezilarli darajada oshgani qayd etildi.

Jahon tajribasi va tahlillardan kelib chiqib, ichki va tashqi xatarlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha yangi jangovar bo‘linmalar tuzildi, qo‘shinlar tarkibi optimallashtirildi.

Armiyani modernizatsiya qilish va zamonaviy qurollantirishning yangi tizimi — mudofaa sanoati yanada rivojlantirilgani, qo‘shimcha korxonalar tashkil qilingani qayd etildi. Qurolli Kuchlarimiz tomonidan 20 dan ziyod mamlakat bilan ikki tomonlama harbiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, 400 dan ortiq qo‘shma mashg‘ulotlarda yuqori ko‘rsatkichlarga erishilganligi aytib o‘tildi.

Qurolli Kuchlar tarkibidagi harbiy oliygohlarning infratuzilmasi to‘liq modernizatsiya qilindi, o‘quv dasturi va metodikasi bugungi kun talablariga moslashtirildi.

Harbiylar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish ham kuchaydi. Jumladan, 30 mingga yaqin oila uy-joy bilan ta’minlandi, o‘tgan yili 2 mingdan ortiq harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozlar berildi.

Vatan himoyachilariga sharoit yaratishda harbiy-ma’muriy sektorlar, davlat va jamoat tashkilotlari ham ishtirok etmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maktablarda ularni chaqiruvga qadar boshlang‘ich harbiy tayyorlashga e’tibor kuchaytirilmoqda.

Yig‘ilishda 2025-yil va kelgusi yillar uchun ustuvor vazifalar belgilandi.

Milliy armiyamizni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda zamonaviy qurolli mojarolar, xavfsizligimizga mavjud tahdidlar va harbiy harakatlar teatri xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlandi.

Hozirgi kunda turli mintaqaviy mojarolarda sun’iy intellekt, robot, raketa, dron va ularga qarshi vositalar keng qo‘llanmoqda. Shundan kelib chiqib, qo‘shinlarda dronlar va ularga qarshi kurashish, sun’iy intellekt bilan ishlaydigan kibertuzilmalar, robotlashgan texnikalarni qo‘llash va havo hujumidan mudofaa bo‘yicha yangi bo‘linmalarni tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan Qurolli Kuchlarimizning jangovar shayligini ta’minlash, jangovar tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini yanada takomillashtirish, sun’iy intellektga asoslangan qo‘shinlarni avtomatlashtirilgan yagona boshqarish tizimini yaratish, harbiy ta’lim va harbiy kadrlarni tayyorlashda dual ta’limdan foydalanish lozimligi ta’kidlandi.

Armiyaning ustuni bo‘lmish “Bosh serjantlar korpusi” faoliyatini takomillashtirish, mudofaa sanoatini yanada rivojlantirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy sport sohasiga yo‘naltirish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Yig‘ilishda mudofaa vaziri, harbiy okrug qo‘mondonlari va boshqa mas’ullarning hisobot hamda takliflari eshitildi.

**O‘zA**

## IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR VA SAMARALI MULOQOTLAR YUKSAK BAHOLANDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 21-fevral kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.**

Rossiya Prezidentining o‘tgan yil may oyidagi O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni yetakchilar tomonidan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi”ga muvofiq amalga oshirish natijalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalarda faol davom etayotgan samarali muloqot va almashinuvlar yuksak baholandi. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikdagi asosiy ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atini ta’minlash, shuningdek, ikki mamlakat hududlarida sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Gumanitar hamkorlik, eng avvalo, madaniyat, san’at, fan, ta’lim, shu jumladan, muhandis kadrlarni tayyorlash, sog‘liqni saqlash va sport sohalarida kengayib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston va Rossiya yetakchilari xalqaro kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashib, bo‘lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

**O‘zA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

## 2025-YILGI NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Sharqona yangi yil boshlanadigan qutlug‘ kun — Navro‘zi olam asrlar davomida bahor, ezgulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma’naviy hayotida beqiyos o‘rin tutib kelmoqda.

Bu munavvar ayyom keyingi yillarda Vatanimizda amalga oshirilayotgan “Inson qadri uchun, inson baxti uchun”, degan olijanob g‘oyaga hamohang bo‘lib, tom ma’noda umumxalq bayramiga aylandi hamda mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida keng nishonlanmoqda.

Ushbu ulug‘ faslning ruhi va falsafasida mujassam bo‘lgan gumanizm, odamzodni butun borliqning gultoji sifatida e’zozlash, ona zamin va tabiatni asrab-avaylash tamoyillari bugungi kunda hayotimizda yanada yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Aynan ana shunday ezgu qadriyatlar tufayli yurtimizda aholi manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning hech bir a’zosini mehr va e’tibordan chetda qoldirmaslik, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yer va suv resurslaridan, barcha tabiat ne’matlaridan oqilona foydalanish ustuvor vazifamizga aylanmoqda.

“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da nishonlanadigan bu yilgi Navro‘z shodiyonalari shu bois yangicha ruh va mazmun kasb etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro bayram sifatida e’tirof etilgan Navro‘zi olamning ko‘p millatli jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini, birdamlik ruhini mustahkamlashdagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini hisobga olib hamda ushbu ayyomni Yangi O‘zbekistonning bugungi salohiyati va nufuziga har tomonlama munosib tarzda nishonlash maqsadida:

1. 2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayrami mamlakatimizda **“Qadriyatlaring boqiy bo‘lsin, Navro‘z!”** degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada keng nishonlansin.

*Davomi 2-betda*

Nuqtayi nazar

## KUCHLI KENGASH, HISOBDOR VA TASHABBUSKOR HOKIM

### USHBU TAMOYILNI TATBIQ ETISHNING ZARURATI VA AHAMIYATI NIMADA?

**Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda hokimlarning vakillik hokimiyatiga boshchilik qilishiga barham berildi. Bu bir kichik o‘zgartirishga o‘xshasa-da, aslida, mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat faoliyatida salmoqli o‘zgarishdir. Ushbu o‘zgarish natijasi mahalliy miqyosdagi ikki organning mustaqilligi, faoliyati samaradorligini ta’minlovchi muhim omil bo‘ldi.**

Yangilangan Bosh qonunimizdan so‘ng qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, Konstitutsiya normalarini hayotga to‘la tatbiq etish choralari belgilandi. Bu borada Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, kengash raisi lavozimi joriy etilishi, bu orqali hokimning vakillik organiga boshchilik qilishiga barham berilishi hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipning mahalliy darajada ijrosini ta’minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Hozirgi sharoit va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar, mahalliy davlat hokimiyati organlarini xalqning haqiqiy ovoziga aylantirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini transformatsiya qilish asosida mahalliy boshqaruvni “aholi manfaatiga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda.

*Davomi 3-betda*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

# 2025-YILGI NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

2. Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va “Nuroniy” jamg‘armasining taklifiga ko‘ra 2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramining g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. 2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tashkiliy qo‘mita (A.N.Aripov) bir hafta muddatda Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlari, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda Konsepsiya asosida ishlab chiqiladigan Navro‘z umumxalq bayramini munosib nishonlash bo‘yicha tashkiliy-amaliy, madaniy-ma’naviy hamda targ‘ibot tadbirlari dasturini tasdiqlasin, shuningdek, uning amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Joylarda Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan barcha tadbirlarni milliy qadriyat va an’analarimiz hamda bugungi islohotlarimizning ma’no-mohiyatiga, Konsepsiyada bayon etilgan asosiy yo‘nalish va tavsiyalarga mos holda, yuksak darajada tashkil etish, ularda yurtdoshlarimizning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilsin:

bayram tadbirlarini borliqning uyg‘onishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e’tiborni ifoda etadigan, yurtdoshlarimizni bugungi tinch va osuda hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga undaydigan ta’sirchan mazmun va shakl bilan o‘tkazish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqimizning kundalik hayoti, ongi va dunyoqarashida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar Navro‘zning insonparvarlik va inklyuzivlik mohiyatiga, azaliy qadriyat va an’analariga hamohang ekanini aks ettirish;

bu yilgi Navro‘z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e’zozlash, “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan va ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ular uchun bayram dasturxoni yozish hamda turli xayriya tadbirlarini o‘tkazish;

“Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hududlarda, ko‘cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish aksiyalarini, umumxalq hasharlarini o‘tkazish;

jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash maqsadida yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlar vakillarining milliy urf-odatlari, an’ana va qadriyatlarini keng namoyish qilish;

bayram tadbirlari davomida hunarmandchilik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, kitob ko‘rgazmalari, arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko‘chma savdo do‘konlari tashkil etish, ko‘klam taomlarini tayyorlash hamda bu borada ko‘rgazmali savdo va tanlovlarni uyushtirish;

barcha shahar va qishloqlarda o‘tkaziladigan bayram tantanalarida, ommaviy axborot vositalarida Navro‘z bayramining tarixi, har bir hududda uni nishonlash bilan bog‘liq udum va an’analarni keng targ‘ib qilish;

Toshkent shahridagi “Yangi O‘zbekiston” majmuasida alohida dastur asosida xalq sayillarini tashkil etish.

5. Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov) Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (O.Hasanov), Yozuvchilar uyushmasi (S.Saidov) bilan birgalikda bir hafta muddatda Konsepsiyaga muvofiq Toshkent shahrida Navro‘z bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan asosiy konsert tomoshasining dasturi va senariysini ishlab chiqsin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari:

a) bir hafta muddatda Navro‘z umumxalq sayillarini o‘tkazish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutadigan hududiy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

umumxalq sayillari uyushtiriladigan asosiy maydonlar, ko‘cha va xiyobonlarni milliy uslubda bayramona bezatish;

mazkur sayil va tomoshalarni mahalliy tajribali ssenarist va rejissyorlar, kompozitor va bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste’dodli yosh ijrochilar, folklor san’ati vakillari bilan birgalikda yuqori badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko‘rish;

bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos bo‘lgan xalq o‘yinlari, tomoshalar, ko‘rgazmalar o‘tkazish, bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalar tashkil qilish;

b) bayram dasturlarini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko‘chalar, maydon va xiyobonlarni bezatishda malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlarni keng jalb etsin;

d) barcha tadbirlar jamoat xavfsizligi talablariga qat’iy rioya qilingan holda o‘tkazilishini ta’minlasin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, o‘tkaziladigan bayram tadbirlarining xarajatlari:

Toshkent shahrida — respublika budjeti va Toshkent shahri mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda — tegishli mahalliy budjetlar hamda homiylik xayriyalari hisobidan qoplanadi.

8. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “Dunyo” axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 21-fevral

# KO‘MAKKA MUHTOJ INSONGA

## O‘Z VAQTIDA VA BEMINNAT YORDAM KO‘RSATILADI

**O‘zbekiston – ijtimoiy davlat. Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ushbu tamoyil asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko‘rsatishda shaffof, raqamlashtirilgan tizim yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hayotga tatbiq etilayotgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi bu jabhadagi ishlar rivojiga xizmat qilmoqda.**

Ayni paytda yurtimizda bu yo‘nalishda mahalla darajasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish tizimi yaratildi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘maklashish, jamiyatga integratsiya qilish, sifatli protez-ortopediya va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash jarayoni takomillashtirildi.

Prezidentimizning shu yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni mazkur yo‘nalishdagi islohotlar yo‘lida muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Farmonda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturida nazarda tutilgan imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish, hududlarda aholining turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kambag‘allikni qisqartirish borasida yangicha yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Bu yo‘nalishda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish uchun “Saxovat va ko‘mak”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish, ulardan foydalanish tartib-taomillari belgilandi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish keng qamrovli masala, bunda oilaning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlar bilan bir qatorda kambag‘allikdan chiqarish va bandlik tadbirlarini ham uzviy tarzda tashkil etish lozim. Qolaversa, davlat tomonidan ajratilgan yordamning muhtoj qatlamga manzilli yetib borishini ta’minlash ustuvor vazifa.

Shuningdek, uy-joyga muhtoj yoki xonadoni ta’mirtalab oilalarning yashash sharoitini yaxshilashga ko‘maklashish ham e’tibor talab etiladigan holat. Ijtimoiy himoya tadbirlarini tashkil etishda ana shu jihatlarga doimiy e’tibor qaratish, oilalarning holatini muntazam o‘rganish orqali kambag‘allik holatiga tushish ehtimoli bo‘lganlarga ham o‘z vaqtida ko‘mak berish inson qadrini ulug‘lashdek ezgu tamoyillarga hamohangdir. Farmonda ushbu yo‘nalishda muhim chora-tadbirlar belgilangani ayni muddao.

Ilgari ijtimoiy daftarlar jamg‘armalari orqali aholining tegishli toifalariga ko‘rsatiladigan yordam minimal iste’mol xarajatlarining bir barobaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ajratilardi. Farmonga muvofiq, bu yo‘nalishda yangi tartib belgilandi. Endilikda oylik daromadi oila a’zolarining har biriga minimal iste’mol xarajatlari miqdorining 2 barobaridan ko‘p bo‘lmagan oilalarga ham taqdim etiladi. Bunda madaniy-ma’rifiy, ta’lim, sport va turizm tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishga “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” jamg‘armalari tushumlarining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini yo‘naltirishga ruxsat beriladi.

Yana bir yangilik ehtiyojmand qatlamning davolanishi, xususan, jarrohlik muolajalarini olishiga ko‘maklashish bilan bog‘liq. Avval bunday ko‘mak turli daftarlar orqali ko‘rsatilar, mablag‘ miqdori ham turlicha bo‘lgan. Bu esa muayyan muammolarni yuzaga keltirayotgan edi. 2025-yil 1-maydan ijtimoiy daftarlar jamg‘armalari hisobidan davolash va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish xarajatlari Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi orqali moliyalashtiriladi. Qolaversa, jarrohlik muolajasi xarajatlari to‘liq qoplab beriladigan bo‘ldi.

Yaqin-yaqingacha ijtimoiy yordam ajratishda aholining haqiqatan bunday ko‘makka muhtoj ekani to‘liq o‘rganilmas edi. Natijada haqiqiy ehtiyojmand oilalar qolib, moliyaviy holati yaxshi bo‘lganlar ham yordam olib kelgan. Ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablag‘larni haqiqiy muhtojlarga yetkazishda jahon tajribasida ham qator muammolar uchraydi. Shu bois, ko‘plab rivojlangan davlatlar yechim sifatida avtomatlashtirilgan tizimdan foydalanmoqda.

Masalan, Germaniyada ijtimoiy yordam avtomatik tarzda tayinlanadi, bu jarayonda davlatga murojaat qilish talabi yo‘q. Bu usul Janubiy Koreya va Kanada tajribasida ham o‘zini oqlagan. Endilikda bizda ham bu amaliyotdan foydalanish ko‘zda tutilmoqda. Buning uchun ijtimoiy daftarlar jamg‘armalari hisobidan yordam ko‘rsatishni so‘rab murojaat qilgan shaxslarning ijtimoiy holatini aniqlash “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali, oilaning moliyaviy holatini esa idoralararo axborot almashinuvi orqali avtomatik ravishda baholash natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.




Shuningdek, 2025-yil 1-apreldan Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar uchun ijtimoiy daftarlar jamg‘armalari orqali qo‘llab-quvvatlashning bir qator yangi instrumentlari joriy etiladi. Masalan, kamida 3 nafar xotin-qiz, yosh va aholining boshqa ehtiyojmand toifasi bandligi hamda ijtimoiy faolligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” hamda “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armalari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 60 baravarigacha grantlar ajratiladi.

Bundan tashqari, ushbu sanadan e’tiboran “Yoshlar daftari” jamg‘armasi orqali, shu yil 1-sentabrdan esa “Ayollar daftari” jamg‘armasi orqali to‘lanadigan bir martalik moddiy yordamlar o‘rniga kam ta’minlangan oilalar uchun nazarda tutilgan nafaqalar to‘lanadi.

Shu yil 1-apreldan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordam o‘rniga ushbu hududlarda yashovchi Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga uy-joyida artezian quduq qazish, suv nasoslarini o‘rnatish hamda ichimlik suv filtrlarini xarid qilish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish tartibi joriy etiladi. Bunda subsidiya xarajatlarning 90 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ajratiladi. Ushbu chora-tadbirlar aholini toza ichimlik suv bilan ta’minlash va salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Nogironligi bor shaxslarga mehr-e’tibor ko‘rsatish, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun sharoit yaratish, sog‘lig‘ini yaxshilashga ko‘maklashish savobli ish. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarishlash uchun “G‘amxo‘rlik” guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bu boradagi xayrli ishlar davom ettirilib, “Yoshlar daftari” jamg‘armasi hisobidan nogironligi bo‘lgan yoshlarga parasport to‘garaklariga qatnashishi uchun yo‘l haqi xarajatlarini har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravarigacha miqdorda qoplab berish yo‘lga qo‘yiladi. 6 oy davomida muntazam ravishda sport va san’at to‘garaklariga qatnashayotgan yoshlar uchun sport kiyimlari, inventarlar, musiqa va cholg‘u asboblarini xarid qilish uchun mablag‘ ajratiladi.

Hayot tasodifiy hodisalardan xoli emas. To‘satdan ro‘y beradigan yong‘in, toshqin kabi fojialar tinch-totuv, to‘kinlikda yashab turgan oilalarning baxtli hayotini birpasda yo‘qqa chiqarishi mumkin. Bunday holatlarda oilalarga ko‘mak berish, ruhan dalda bo‘lish xalqimizning azaliy qadriyati. Albatta, og‘ir lahzalarda yaqinlar, mahalla-ko‘yning hamdardligi, qo‘llab-quvvatlovi katta madad. Ammo shunday vaziyatda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordamning ham ahamiyati beqiyos.

Shu jihatlar e’tiborga olinib, farmonga muvofiq, yong‘in, suv toshqini, zilzila va boshqa texnogen hodisalar oqibatida zarar ko‘rgan oilalarga uy-joylarini tiklash, ta’mirlash xarajatlarini qoplash uchun “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi orqali bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravarigacha yordam ko‘rsatish belgilangani yana bir xayrli ish bo‘ldi. Zero, ko‘makka muhtoj insonga o‘z vaqtida va beminnat tarzda ko‘rsatilgan yordam eng katta qo‘llovdir.

Tuman (shahar) hokimliklari huzurida “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalari tashkil etilishi bunday xayrli ishlar barcha joylarda keng quloch yoyishi va ijtimoiy ko‘mak haqiqiy muhtoj qatlamga o‘z vaqtida va manzilli yetib borishiga zamin bo‘ladi.

Mazkur farmonda belgilangan ana shunday xayrli ishlarning to‘liq ro‘yobga chiqishi ijtimoiy yordamning maqsadli va manzilliligini, uning ko‘makka haqiqatan ehtiyoji bor insonlarga yetib borishini ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi. Qolaversa, ijtimoiy dasturlar yangi mexanizmlar asosida yanada shaffof va samarali amalga oshirilishi natijasida tizimda korrupsiya va byurokratiyaning oldi olinadi. Bundan, avvalo, inson, qolaversa, jamiyat va davlat har tomonlama manfaat ko‘radi.

**Bahor XIDIROVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# BIR UMR YODIMDA QOLADIGAN UCHRASHUV

## KELAJAGIMIZ BUNYODKORLARI DAVLATIMIZNING E’TIBORI VA G‘AMXO‘RLIGIDAN CHETDA QOLMAYDI

**Aholisining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadigan yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda navqiron avlodning huquq va manfaatlarini ta’minlash, munosib ta’lim olishi, iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.**

O‘tgan qisqa muddatda ushbu yo‘nalishda 100 dan ortiq qonun hujjati qabul qilinib, ular asosida yangi imkoniyatlar yaratilgani, umuman, yoshlar bilan ishlashning zamon talablariga mos yangi tizimi yo‘lga qo‘yilgani fikrimizni tasdiqlaydi. Yoshlar bilan davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari har qachongidan-da mustahkamlangani ham alohida muhim jihatlardan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi, ularning ta’lim olish, sog‘lig‘ini saqlash, uy-joyli bo‘lish, ishga joylashish va dam olish huquqlarini ta’minlash uchun yetarli sharoit yaratishi zarurligi belgilab qo‘yildi. Bugun Bosh qonunimizda aks etgan normalar hayotga to‘liq tatbiq qilinmoqda. Asosiysi, bu imkoniyatlardan mamlakatimiz yoshlarining barchasi faol foydalanyapti. Hozir hech bir yosh davlatimizning e’tibori va g‘amxo‘rligidan chetda qolayotgani yo‘q.

Darhaqiqat, yoshlarga ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng yo‘l ochildi, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi. “Yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari joriy etilgani natijasida yoshlar muammolari joyida o‘rganilib, o‘z vaqtida va samarali hal etilmoqda.

Yigit-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb qilish maqsadida 2020-yilda Qonunchilik palatasi huzurida Yoshlar parlamenti tashkil etilgandi. Bugun Yoshlar parlamenti yoshlarning manfaatlarini himoya qilish, ularni qonunchilik jarayoniga jalb qilishda muhim platforma vazifasini o‘tayapti. Shu bilan birga, yoshlar va davlat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarib kelmoqda.

O‘tgan qisqa muddatda Yoshlar parlamenti navqiron avlodning siyosiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini yuksaltirish, jamiyat hayotiga daxldorligini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan muhim institut sifatida shakllandi. Tom ma’noda o‘g‘il-qizlarning o‘z fikrlarini baralla aytishi uchun yuksak minbar bo‘ldi.



**Shahnoza JOLDASOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

Yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli o‘tgan 8 yilda yosh tadbirkorlar soni 3 karra ko‘paydi. Qisqa muddatda 42 foiz yosh oliy ta’limga qamrab olindi.

Birgina 2024-yilning o‘zida “Yoshlar daftari” orqali 155 ming yigit-qizga 345 milliard so‘mlik moliyaviy yordam ko‘rsatildi. Magistraturada tahsil olayotgan talabalar soni 7 barobar ortgan bo‘lsa, xotin-qizlarning kontrakt to‘lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani tufayli ular soni 11 barobar ko‘paydi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali so‘nggi 7 yilda 2300 yosh xorijiy davlatlarda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu raqam o‘tgan 25 yilda davlat hisobidan yuborilgan yoshlar sonidan 3 barobar ko‘p deganidir. Ilmiy salohiyatni oshirish borasida ham sezilarli natijalarga erishildi. Ilmiy darajali yosh olimlar soni 2 barobar ortib, 4357 nafarga yetdi.

Yoshlarning til o‘rganishga qiziqishi ham ortib bormoqda. Buni so‘nggi 3 yilda til o‘rganayotganlar soni 2 millionga yetgani, IELTS imtihonidan yuqori ball olganlar soni esa 5 barobar oshgani misolida ko‘rish mumkin.

Erishilgan natijalar bilan bir qatorda yoshlar kelajagini yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi tashabbuslar ham ilgari surilmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari sohasida yoshlarni, ayniqsa, qizlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilyapti. 2024-yilda 25 ming qiz axborot texnologiyalari bo‘yicha bepul o‘qitilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkichni 2 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Iqtidorli, bilimga chanqoq, lekin og‘ir oilaviy sharoiti tufayli o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoshlarni xorijda o‘qitish bo‘yicha yangi tizim — “Yorqin kelajak” loyihasi joriy etiladi. Ushbu loyiha doirasida har bir mahalladan ijtimoiy himoyaga muhtoj, bilimga chanqoq yoshlar saralab olinib, ularning iqtidori aniqlanadi va salohiyatiga mos xorijiy oliygoh tanlanib, tayyorgarlik kurslarida o‘qitiladi.

Endi parlamentdagi yoshlarga daxldor qonun loyihalari Yoshlar parlamenti a’zolari bilan muhokama qilinadi. Hatto yalpi majlisda loyiha bo‘yicha yoshlar vakillarining fikri ham eshitiladi. Kengash sessiyalarida yoshlar masalalari bo‘yicha mas’ul organlar rahbarlarining axborotini eshitish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Barcha mahalliy kengashlar huzurida “yoshlar guruhi” tashkil etiladi.

Prezidentimizning shu yil 14-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan muloqoti navqiron avlod hayotida tom ma’noda yangi sahifa ochdi. Yoshlarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamladi. Davlatimiz rahbari yosh avlod vakillarini xalqimizning oltin fondi deb atadi. Yoshlar bandligini ta’minlash, ularning ta’lim olishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida bir qator muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Ayniqsa, yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, salohiyatini ro‘yobga chiqarish sohasidagi islohotlarda Qonunchilik palatasining ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tuzish tashabbusi e’tiborga molik.

Binobarin, yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, zamonaviy dunyoqarash, bilim hamda ko‘nikmalarga ega yigit-qizlarning huquqiy bilimini yuksaltirishda Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya muhim ahamiyatga ega. Zero, u yoshlar masalalariga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda ijro etish bo‘yicha samarali va ta’sirchan parlament nazoratini amalga oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda muhim institutdir.

Ushbu yangiliklarni eshitib, yoshlarning bir vakili, parlamentdagi eng yosh deputatlardan biri sifatida juda xursand bo‘ldim. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan Yoshlar parlamentida bir necha yillik faoliyatim davomida anglaganim shu bo‘ldiki, yoshlarning qonun ijodkorligi jarayoniga qiziqishi baland.

Xalqimizning hayotini yaxshilashga qaratilgan qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ham yoshlar vakillari doim o‘z taklif va tavsiyalari bilan faol ishtirok etib kelmoqda. Bu kabi yangi tashabbuslar, shubhasiz, intiluvchan, salohiyatli, yoshlar orasida o‘z obro‘siga ega Yoshlar parlamenti vakillari uchun juda yaxshi imkoniyat bo‘ladi.

Yaqinda Qonunchilik palatasida faoliyatimni boshlagan bo‘lsam ham ushbu tashabbusning amalga oshishida doimiy ravishda yordam berishga, o‘sib kelayotgan uka-singillarimga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga doimo tayyorman.

Ochig‘i, juda ko‘p dilkash, samimiy suhbatlarning guvohi bo‘lganman. Lekin Prezidentimiz bilan muloqot bir umr yodimda qoladi. Boisi, davlatimiz rahbarining har bir gapi yoshlarning ertangi kuni, ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va hayotda o‘z o‘rnini topib, murod-maqsadiga yetishini ta’minlashga yo‘g‘rilgan.




Nuqtayi nazar



**2024-yil 17-oktabrda qabul qilingan qonun bilan kengash raisining 12 banddan iborat vakolatlari belgilab qo‘yildi. Ular, asosan, xalq deputatlari kengashlari sessiyalarini chaqirish, unga tayyorgarlik ko‘rish, sessiyalarni o‘tkazish (raislik qilish), sessiyalarda qabul qilingan hujjatlarni imzolash, kengash komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, deputatlar faoliyatiga ko‘maklashishdan iborat.**

**Ozod HUSANOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori**

# KUCHLI KENGASH, HISOBDOR VA TASHABBUSKOR HOKIM

## USHBU TAMOYILNI TATBIQ ETISHNING ZARURATI VA AHAMIYATI NIMADA?

Boshlanishi 1-betda

Farmon bilan mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini “Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida tashkil etish yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Hujjatga muvofiq, mahalliy kengashlar faoliyatiga har qanday davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mahalliy kengashlar zimmasiga vazifa va funksiyalar faqat qonun hujjatlari bilan yuklanishi tartibi o‘rnatilishi kengashlar mavqeini yuqori darajaga ko‘tarmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, ularni Prezident farmonida ko‘rsatilgan maqomga ko‘tarish, nazorat funksiyasini kuchaytirish masalasi 2024-yil 17-oktabrdagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunda o‘z ifodasini topdi. Shu asosda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunga jiddiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Natijada qonun normalari takomillashtirildi va yangi normalar vujudga keldi.

Xususan, qonunda uzoq vaqt ishlamay kelgan, “hokim deputatlar orasidan saylanadi (tayinlanadi)” degan qoida olib tashlanib, uning o‘rniga “hokim xalq deputatlari kengashi deputati etib saylanishi mumkin” va “hokim nomzodi ko‘rib chiqilayotgan vaqtda u hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturini taqdim etadi”, “ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman va shahar hokimi etib tayinlanishi mumkin emas” degan qoidalar kiritildi.

Kengash va hokim qarorlari (hokim farmoyishi)ni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishda yagona elektron tizimdan foydalanish belgilanganini qonundagi muhim yangiliklardan biri sifatida aytish lozim. Kengash hamda hokim qabul qilgan hujjatlarda boshqacha holat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, elektron tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan kuchga kirishi, yagona elektron tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan hujjatlar, qonunda nazarda tutilgan holatlardan tashqari yuridik kuchga ega bo‘lmasligi mustahkamlandi. Shuningdek, qonunda qonuniy asosda yaroqsiz deb topilgan mulklarni buzib tashlash, yer uchastkalarini foydalanish uchun berish kabi kengash vakolatlari aniq belgilandi.

Takomillashtirilgan qonunda mutlaqo yangi holat kengash raislariga taalluqli. Chunki bu yangi institut. Endi qonunga asosan xalq deputatlari kengashlarining barcha bo‘g‘inlariga kengash deputatlari orasidan, kengash vakolat muddatiga saylanadigan kengash raisi boshchilik qiladi.

2024-yil 27-oktabrda o‘tkazilgan saylovlar orqali shakllantirilgan xalq deputatlari kengashlari tizimida viloyat va Toshkent shahri kengashlarida kengash raisi saylandi va hozir faoliyat ko‘rsatmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini kuchga kiritishga doir qonunchiligimizga muvofiq, tuman va shahar kengashlarida 2026-yildan kengash raisi saylanadi.

Qonunchiligimizga asosan, hokim lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida kengash raisi etib saylanmaydi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq bir viloyat, tuman, shahar kengashi raisi etib saylanishi mumkin emas (bunday qoida hokimlarga nisbatan ham o‘rnatildi). Kengash raisi raislik vazifasini bajarish davrida siyosiy partiyalarga a’zolikni to‘xtatib turadi. Shuningdek, doimiy komissiyalar va partiyalar, partiya guruhlari tarkibiga kirishi mumkin emas.

2024-yil 17-oktabrda qabul qilingan qonun bilan kengash raisining 12 banddan iborat vakolatlari belgilab qo‘yildi. Ular, asosan, xalq deputatlari kengashlari sessiyalarini chaqirish, unga tayyorgarlik ko‘rish, sessiyalarni o‘tkazish (raislik qilish), sessiyalarda qabul qilingan hujjatlarni imzolash, kengash komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, deputatlar faoliyatiga ko‘maklashishdan iborat.

Kengash raisi kengash faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta’minlaydi, Kengash faoliyatining tashkiliy, axboriy, moddiy-texnik ta’minotini tashkil etadi. Kengashning yordamchi organi — kotibiyat mudiri, xodimlarni lavozimga tayinlaydi, lavozimdan ozod qiladi, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi.

Bu bilan avval hokimlar zimmasidagi ko‘plab vazifalar kengash raisiga o‘tkazildi va ular endi barcha faoliyatini hududni idora etishga qaratadi. Ijro organlariga tegishli ishlar bilan shug‘ullanadi.

Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida kengashlarni “xalq ovoziga” aylantirish masalasi qo‘yilgan. Kengash shu yerdagi aholi ehtiyoji, muammolarini aniq bilishi va buning uchun aholi bilan yaqindan, doimiy muloqotda bo‘lishi kerak. Bu ishning asosiy yechimi aholini qabul qilishni to‘g‘ri tashkil etishdir. Shuning uchun kengash raislariga fuqarolarni qabul qilishni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, murojaatlarini ko‘rib chiqish vakolati ham berildi.

Avvalgi qonunda sessiya zaruratga qarab, lekin yilda kamida 2 marta chaqiriladi, degan qoida o‘rniga sessiya zaruratga qarab, lekin har chorakda bir marta chaqirilishi belgilanganini ijobiy jihat sifatida baholash mumkin. Qonunda navbatdan tashqari sessiya chaqirish tashabbusiga ega subyektlar ham ko‘rsatib qo‘yildi.

Qonunning yana bir muhim jihati kengashlarning nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi alohida moddada belgilab qo‘yilganidadir.

Yangi tahrirdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunda mahalliy ijro etuvchi hokimiyatga katta o‘rin ajratildi. Uning diqqatga sazovor tomonlaridan biri shu vaqtgacha qo‘llab kelingan “ijroiya hokimiyat” atamasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib, “ijro etuvchi hokimiyat” deb o‘zgartirildi. Hokimning viloyat, tuman va shaharda ijro etuvchi hokimiyatga boshchilik qilishi mustahkamlab qo‘yildi. Hokimning vakolatlari 21-moddada 21 bandda belgilandi. 1993-yil 2-sentabrdagi qonunda esa hokimlar vakolatlari 25-moddada 12 bandda belgilangan edi.

Hozirgi sharoitda asosiy masala ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va xalq farovonligini oshirish ekanidan kelib chiqib, qonunga binoan hokimlarga quyidagi qo‘shimcha vakolatlar berildi:

— hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

— viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar byudjetidan, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorini




byudjet so‘rovini tuzish uchun ko‘rib chiqish va taqsimlash;

— xalq deputatlari kengashlari sessiyalarida ishtirok etish;

— kengashga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim va dolzarb masalalari bo‘yicha hisobotlar taqdim etish;

— kengashning qonunchilikka zid qarorlarini bekor qilish uchun Oliy Majlis Senati yoki sudga murojaat qilish;

— viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga navbatdagi yil uchun mahalliy byudjetlar loyihasini ko‘rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish, o‘tgan moliya yili uchun mahalliy byudjetlarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tashqi auditdan o‘tkazish hamda baholash uchun yuborish.

Bular, o‘z navbatida, hokimlarning vakolatlari avvalgi qonunchilikka nisbatan ancha ko‘paygani va aniqlashtirilganini ko‘rsatadi.

Xuddi shuningdek, qonunda xalq deputatlari kengashlarining vakolatlari ham aniqlashtirildi va sezilarli darajada ko‘paytirildi. Kengashga qo‘shimcha:

— Prezident xalq qabulxonalarining hududdagi davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari faoliyati hamda murojaatlar bilan ishlash holati to‘g‘risidagi axborotini har chorakda eshitish;

— yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etishga ko‘maklashish, yosh avlodning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoit yaratish choralarini ko‘rishga qaratilgan ishlar to‘g‘risida Yoshlar ishlari agentligi hududiy rahbarlarining hisobotini har 6 oyda eshitish;

— zarurat bo‘lganda ijro etuvchi hokimiyat bo‘limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining hisoboti, jumladan, qonunlarga rioya etilishi, tegishli kengashlar qarorlari va doimiy komissiyalar tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish;

— prokurorning faoliyati to‘g‘risidagi axborotni eshitish;

— kengash so‘rovini yuborish to‘g‘risidagi taklifni ko‘rib chiqish, kengash tekshiruvini o‘tkazish, deputat so‘rovini yuborish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;

— hokimning kengashning qonunchilikka zid qarorlarini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi taqdimnomasiga asosan kengash qarorini o‘zgartirish yoki bekor qilish;

— hokimning va quyi kengashning qonunchilikka zid qarorlarini bekor qilish belgilandi.

Yangi tahrirdagi qonunda viloyat va Toshkent shahri kengashlarigagina taalluqli vakolatlar ham alohida belgilandi. Jumladan:

— viloyat hamda Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetida ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorini ko‘rib chiqadi hamda tasdiqlaydi;

— jismoniy va yuridik shaxslarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish yoki ijara huquqi asosida tegishli yer uchastkalari yoki ularning qismlari kompensatsiyasi evaziga jamoat ehtiyoji uchun olib qo‘yish va olib qo‘yilgan yer uchastkalarida joylashgan ko‘chmas mulk obyektlarini qonunda belgilangan holat va tartibda buzib tashlash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

— Ombudsman va Bolalar ombudsmani hududiy vakilining ma’ruzasini har yili eshitish;

— tegishli hududga mahalliy ahamiyatga molik monumental yodgorliklarni qonunchilikda belgilangan tartibda o‘rnatish, buzish (ko‘chirish) to‘g‘risida qarorlar qabul qilish.

Shuningdek, qonunda hokimlarning yil yakuni bo‘yicha hisoboti qachon eshitilishi kerakligi, viloyatlar, Toshkent shahri IIB boshliqlarining qanday muddatda hisobot berish tartibi hamda bunday sessiyalarning oshkora o‘tishi belgilab qo‘yildi. Bu bilan ichki ishlar organlari faoliyati ustidan vakillik hokimiyati hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlari kuchaytirildi. Qonunning muhim yangiliklaridan yana biri — “kengash so‘rovi,” “kengash tekshiruvi” kabi mutlaqo yangi institutlar ta’sis etildi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga 2020-yildagi Murojaatnomasida “Ayni vaqtda farmonlar, qarorlar, konsepsiya va strategiyalarda belgilangan indikatorlar va maqsadli parametrlarning ijrosi bo‘yicha hokimlar o‘z hududlaridagi ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikka muntazam axborot berib borishlari kerak bo‘ladi.

Ishning samarasini oshirish maqsadida mahalliy vakillik organlari faoliyatida kengash so‘rovi institutini joriy etishni taklif qilaman”, degandi. Ayni tashabbus mazkur qonunda o‘z o‘rnini topdi.

Qonunning “kengash so‘rovi” deb nomlangan moddasiga asosan, “kengash so‘rovi” tegishli hududda joylashgan davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslariga javob berish shart bo‘lgan talabidir. Qonunda so‘rovni shakllantirish, so‘rovni bayon qilish, unga javob berish shakli va muddatlari, uning huquqiy oqibati, “kengash so‘rovi” qanday masalalarga tatbiq qilinmasligi aniq belgilab qo‘yildi. Qisqa va lo‘nda aytganda, kengash so‘rovi hamda nazorati kuchli, ta’sirli mexanizmdir.

Ana shunday mexanizmlardan yana biri kengash tekshiruvidir. Kengash tekshiruvi tegishli hudud xavfsizligiga, barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan (to‘sqinlik qiluvchi), inson huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar hamda voqealarni o‘rganish maqsadida o‘tkazilishi mumkin. Bu haqdagi qaror deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. “Kengash so‘rovi” kabi “kengash tekshiruvi” qanday obyektlarga qaratilmasligi ham qonunda belgilab qo‘yildi. Bu turdagi tekshiruv kengash tuzgan komissiya tomonidan o‘tkaziladi. Uning vakolatlari ham qonunda aniq belgilab qo‘yilgan.

Yangilangan qonun mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini, vakillik va ijro etuvchi organlar munosabatini yangicha tashkil qilish, o‘zaro tiyib turish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Lekin bu bilan maqsadga erishilmaydi. Mahalliy davlat hokimiyatini yanada rivojlantirish, mavqeini oshirish doimiy jarayonga aylanishi kerak. Zero, davlatimiz rahbari yangi saylangan parlament majlisida so‘zlagan nutqida qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy kengashlarni keng jalb etish, har bir qonun bo‘yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, qonunlarni parlament qo‘mitalarida ko‘rib chiqishga vazirlik va idoralar vakillarini emas, mahalliy kengash deputatlarini jalb etish, mahalliy kengashlar faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashish Senatning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerakligini ta’kidladi.

---



# HAMMAMIZ UCHUN HAYOT MANBAI

Yuksalish pallasi

**O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, mamlakatning global hamjamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishida tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil” transformatsiyasini amalga oshirish, raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligi hamda “yashil” rivojlanish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida tizimli ishlar bajarilmoqda.**

Jumladan, 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va “O‘zbekiston — 2030” strategiyalarida 2030-yilga qadar jami elektr energiyasida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, issiqxona gazini qisqartirish, sanoatda energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish, “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilangan.

So‘nggi yillarda katta hajmli muqobil quvvatlar ishga tushirilib, elektr energiyasi ishlab chiqarishda “yashil” energiya ulushi 16 foizga yetkazildi. Sanoatda “yashil” energiya sertifikati tizimi joriy qilindi. Shuningdek, quyosh paneli o‘rnatilgan xonadonlar soni 60 mingdan oshdi. Bu esa mamlakatning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish borasidagi sa’y-harakatlari jadal davom ettirilayotganidan dalolat.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida mazkur siyosatning mantiqiy davomi sifatida ekologik barqarorlikni ta’minlash, “yashil iqtisodiyot” va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil” energiya stansiyalarini barpo etish, aholi xonadonlarida quyosh panelini o‘rnatishni rag‘batlantirish, iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish, resurslarni qayta ishlash va samarali foydalanish orqali chiqindilarni kamaytirish hamda “yashil” komponentlarni oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

2025-yilda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish maqsadida Parij bitimi talablaridan kelib chiqib, O‘zbekistonning uglerod neytralligiga erishishining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish, umumiy quvvati 4,5 gigavatt bo‘lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, 785 megavatt quvvatli quyosh panellarini o‘rnatish, 225 megavatt quvvatli gidroelektr stansiyalarini barpo etish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishda jami qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 26 foiz va jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushini 40 foizga yetkazish, yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylar energiya samaradorligidan kelib chiqib, “Yashil bino” sertifikati joriy etish singari vazifalar belgilandi.

Shuningdek, 2025-yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan bosqichma-bosqich 200 million yevrogacha, Jahon bankidan energetika sektorida metan emissiyasini kamaytirish uchun 10 million dollar, Global yashil o‘sish instituti




orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko‘magi doirasida O‘zbekiston — Koreya o‘rtasida “yashil” hamkorlikni kuchaytirish uchun 6,5 million dollar, Jahon bankining iCRAFT loyihasi doirasida 500 ming tonna qisqartirilgan issiqxona gazlarini sotish hisobiga 7,5 million dollar, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan sanoatni yashillashtirish va azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning atmosferaga chiqarayotgan zararli gazini qisqartirish uchun 20 million yevro miqdoridagi “yashil” va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozli kredit va grant mablag‘lari jalb etiladi.

Shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarning 2025-yildan boshlab 15 foizida, 2027-yildan boshlab 30 foizida, 2030-yildan boshlab 55 foizida “yashil” komponentlar bo‘lishi lozimligi belgilandi.

Bundan tashqari, 2030-yilga borib, 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya manbalari barpo etilib, buning hisobiga yiliga 64 milliard kilovatt-soat “yashil” energiya olish va jami generatsiyada “yashil” energiya ulushini 50 foizdan oshirish maqsad qilingan.

Umuman olganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, metan emissiyasini qisqartirish kabi choralar mamlakatda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish, ekologik barqarorlik hamda aholi salomatligini ta’minlashga, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

**Iskandar O‘ROQBOYEV,**
**“Taraqqiyot strategiyasi” markazi bosh mutaxassisi**

Tog‘-kon sanoati



# “O‘SISH NUQTALARI”DA QARASHLAR HAM, MUNOSABAT HAM O‘ZGARMOQDA

**Gapning rosti, yaqin yillargacha Surxondaryoda faqat agrar tarmoqni rivojlantirish mumkin, chunki boshqa soha va tarmoqlar istiqbolsiz degan qarashlar mavjud edi. Biroq oxirgi yetti yilda vohada amalga oshirilgan katta islohotlar bu qarash noto‘g‘ri ekanini amalda isbotladi.**



Bugun viloyatning asosiy drayverlaridan biri bo‘lgan agrar tarmoq qatorida sanoat, qurilish, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalar ham izchil rivojlanib, yangi ish o‘rinlari ochilmoqda.

Bu o‘zgarishlar viloyatning asosiy ko‘rsatkichlarida ham o‘z ifodasini topyapti. Jumladan, yalpi hududiy mahsulot 2016-yil 12 trillion 179 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakunida 40 trillion so‘mdan oshdi. Bu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 trillion 200 milliard so‘mdan 7 trillion 298 milliard so‘mga yetkazildi.

Viloyatda 2017-yili 25 ming 674 korxona faoliyat yuritgan bo‘lsa, o‘tgan yil yakuniga ko‘ra, ular soni 46 ming 250 tadan oshdi. Qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi tarmoqlarda ham yirik hajmdagi o‘sish sur’ati kuzatilmoqda.

Prezidentimizning Surxondaryoga har bir tashrifini voha ahli ko‘tarinki kayfiyatda kutib oladi. Boisi, tashrifdan so‘ng yangidan yangi loyihalar hayotga tatbiq etiladi. Aholi farovonlashuviga xizmat qiluvchi qator tashabbuslar ilgari surilib, mas’ullarga zarur topshiriqlar beriladi.

Davlatimiz rahbari 2023-yil 16-17-noyabr kunlari viloyatga tashrifi chog‘ida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish yuzasidan mas’ullarga qator vazifalarni belgilab berib, aniq yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tgan, jumladan, bunday degan edi: “Surxondaryo viloyatiga investitsiya jalb qilish va sanoatni rivojlantirishdagi eng katta zaxira — bu mavjud konlarni ishga solish”.

Haqiqatan, vohada yer osti va yer usti boyliklari serob. E’tibor bering: 2017-yilgacha viloyat hududida 77 ta foydali qazilma koni davlat balansida qayd etilgan bo‘lsa, keyingi 7 yilda sohada amalga oshirilgan islohotlar va geologiya-qidiruv ishlari natijasida qo‘shimcha 1 ta qo‘rg‘oshin-rux va 28 ta noruda qazilmaning yangi konlari aniqlanib, jami konlar soni 106 taga yetkazildi.

Konlarni o‘zlashtirish natijasida yangi sanoat korxonalari barpo etilmoqda. Aholini ish bilan ta’minlash, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mavjud zaxiralardan foydalanish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosi ta’minlanyapti.

Xususan, Termiz tumanida bazalt plita ishlab chiqarishga qaratilgan yirik zavod qurilyapti. Umumiy qiymati 26 million dollarlik mazkur loyiha ishga tushirilishi natijasida 320 ta yangi ish o‘rni ochilishi reja qilingan. Qolaversa, vohaning Oltinsoy tumanidagi bazalt zaxirasidan foydalanib, import o‘rnini bosadigan hamda eksportbop mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

Surxondaryo viloyatining shimoliy qismi ma’danli konlarga boy tog‘li hudud. Hali voha sanoatida bo‘y ko‘rsatmagan bazalt plita ishlab chiqarish loyihasi uchun zarur xomashyo, ya’ni bazalt toshlarining juda katta zaxirasi Oltinsoy tumanida mavjud.

— Esimni tanibmanki, Oltinsoyning tog‘li hududi dehqonchilik va chorvachilikka, pasttekislik qismi bog‘dorchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan edi, — deydi oltinsoylik iqtisodchi Rustam Qoraboyev. — Ayniqsa, ikki-uch yilda tumanning yer osti boyliklarini o‘zlashtirishga qaratilgan e’tibor bu yerda ham zamonaviy sanoatni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab berdi. Iqtisodiyotdagi, salohiyat va imkoniyatdagi uyg‘unlashuvdan yuzaga kelgan bu yangilanishlar oltinsoyliklar hayotini o‘zgartirmoqda. Bu kabi qator yangi loyihalar yurt obodligi, xonadonlar fayzi, odamlarning farovon, to‘kin turmushi uchun xizmat qilyapti.

Oltinsoy tumanidagi ko‘mir zaxirasi hamda bazalt uchastkasini o‘zlashtirish yuzasidan berilgan tegishli topshiriqlar ijrosi yuzasidan shu kunlarda “Turon eko ko‘mir” mas’uliyati cheklangan jamiyati sanoat usulida qiymati 50 million dollarlik ko‘mir qazib olish loyihasini amalga oshiryapti. Kon to‘liq ishga tushishi bilan yiliga 360 ming tonna ko‘mir qazib olinadi. Mingdan ortiq kishining ish bilan bandligi ta’minlanadi.

Yangi ish o‘rinlari ochish va ishlab chiqarish quvvatini oshirishda tog‘-kon ma’danlari alohida ahamiyatga ega. Shu bois, Sariosiyo, Oltinsoy va Sherobod tumanlaridagi zaxiralar yangi sanoat quvvatlari uchun zamin bo‘lmoqda. Masalan, bazalt, avvalo, ekologik toza mahsulot. Uning afzalligi issiq va sovuqni o‘tkazmasligida. Bundan tashqari, issiqlikni tejash bilan birga ovoz o‘tkazuvchanligi ham juda past va yong‘indan himoya qilish xususiyatiga ega. Mahsulot alohida qayta ishlashni talab etmaydi, kimyoviy bardoshli va uzoq vaqt foydalanishga mo‘ljallangan. Ushbu material gidrofob. Unga tushgan suv ichkariga o‘tmaydi. Natijada issiqlik saqlash holati ham o‘zgarmaydi. Suvning hajm bo‘yicha so‘rilishi 2 foizdan ko‘p emas. Shu tufayli uy-joylar, ijtimoiy soha va sanoat obyektlarida undan issiqlik saqlovchi vosita sifatida foydalaniladi.

Bazalt plita ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonada kelgusida 320 dan ortiq kishining bandligi ta’minlanadi. Bu 700 ga yaqin oilaning qozoni qaynaydi, degani. Shuningdek, xorijiy mutaxassislarga mahalliy kadrlarni biriktirib, kelgusida malakali muhandislar tayyorlash ham maqsad qilingan. Korxonaning bir yillik mahsulot aylanmasi qiymati qariyb

20 milliard dollarni tashkil etadi. O‘z navbatida, mahalliy byudjetga 16 milliard so‘m tushum tushadi.

Korxona Termiz erkin iqtisodiy zonasi hududida joylashgani bois, Prezidentimizning tegishli farmoni bilan qator soliq imtiyozlari berilgan. Bu esa ishlab chiqarish quvvati kengayishi, korxona rivojida muhim o‘rin tutadi.

Davlatimiz rahbarining tashriflar doirasida viloyatdagi “o‘sish nuqtalari”ni belgilab berayotgani hududda qishloq xo‘jaligi bilan birga qurilish, tadbirkorlik, sanoat va boshqa tarmoqlarning ham izchil yuksalishiga xizmat qilmoqda. Sanoat rivojiga qaratilgan yangi loyihalarning qo‘llab-quvvatlanishi hudud iqtisodiyotini mustahkamlash va aholi farovonligini ta’minlashda muhim asos bo‘lmoqda.

**Sarvar TO‘RAYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Hududlar hayoti

Shaxsiy tajriba

**Behro‘z dehqonchiligi ortidan orttirgan pullari bitta mashinaga yetib qolganini chamalab ko‘rarkan, yaqin o‘rtog‘i bir vaqtlar uni xorijda ishlashga taklif qilganida ko‘nmagani to‘g‘ri bo‘lganidan quvondi. Yaxshiyam unga ergashib ketmagani. Bo‘lmasa, kim biladi, hozir qaylarda yurardi. Olis o‘lkada ish topishning o‘zi bo‘lmasa kerak. O‘rtog‘i ham shu paytgacha tayinli biror joyga joylasholmay yurganini tunov kuni uning otasi aytib qoldi.**

# YOSH DEHQON tomorqadan har yili 200 MILLION SO‘Mdan ziyod DAROMAD TOPMOQDA

Yosh dehqon shularni o‘ylarkan, o‘tgan yili hosildorlik cho‘g‘i zo‘r bo‘lganidan mamnunlik tuyg‘usi yuziga urdi. Lekin bu bilan ishni to‘xtatib bo‘lmaydi. Hali rejalari bisyor. Bu yog‘i uy-ro‘zg‘orga ham yordam qilishi kerak. Buning uchun faqat tomorqadan yanada unumli foydalanish lozim.

Behro‘z Abdurahimov 24 yoshda. Qamashi tumanidagi Boyovut qishlog‘ida yashaydi. U bolaligidan dehqonchilik sirlarini yaxshi o‘rgangan. Shu sabab hovlisiga kirgan kishining dili yayraydi. Boisi, bir qarich bo‘lsa-da, bo‘sh yerning o‘zi yo‘q. Qishloqdagi ota-onalar farzandlariga, ko‘pchilik yoshlarga uni namuna sifatida ko‘rsatadi. Aslida, yosh yigitning qilgan ishlari o‘rnak olsa arzigulik. U yerga kam xarajat qilib, ko‘proq foyda ko‘rish yo‘lini qidirishdan, izlanishdan charchamaydi. Malakali mirishkorlarning ko‘p yillik tajribalarini o‘rganishga harakat qiladi. Ayniqsa, hovlisiga oqar suv kelishi mushkulligi bois, shuni qanday qilib osonroq hal etish choralarini izlaydi.

Ikki yil avval otasi bilan maslahatlashib, 5 sotixli issiqxona qurdi. Ichiga birinchi yili bodring ekdi. Lekin bodringni hosildor qilish uchun doimiy ravishda sug‘orib turish kerak edi. Bu oson emasdi. Qiynalib bo‘lsa-da, epladi. Dastlabki yili natija yomon bo‘lmadi. Ammo suv masalasini hal etmasa, ishi keyingi yilda og‘ir kechishi aniq edi. Tezda ishga kirishib, hali Boyovut qishlog‘ida hech kimning xayoliga kelmagan yomg‘ir suvidan foydalanish loyihasini ishlab chiqdi. Buning uchun besh sotixli issiqxona tomidan tushayotgan yomg‘ir va qor suvini bir joyda to‘plash kerak edi. Shuning harakatiga tushdi. Issiqxona yonida hovuz qurib, quvurlar orqali yomg‘ir suvi yig‘iladigan qildi.

— Shundan so‘ng ishimiz ancha osonlashdi, — deydi Behro‘z Abdurahimov. — Ilgari ariqdan suv kelgunga qadar ko‘p vaqt sarflanardi. Bir kun suv kelsa, haftalab kelmasdi. Ayni paytda issiqxonamizda pomidor ekilgan. Sug‘orishda umuman muammo yo‘q. Hovuzdagi suvdan tomchilatib sug‘orish orqali nihollar tagiga namlik doim borib turadi. Issiqxonalarga ekin sovuq kunlar tushgandan so‘ng ekila boshlanadi. Bu paytda kuzgi-qishki yog‘in mavsumi bo‘ladi. Demak, kunlar isib ketgunga qadar suv muammosi hal etiladi. Mutaxassislar fikricha, hosildorlik ortishida ham yomg‘ir suvining hissasi katta.

Yosh dehqonning yana bir usuli ko‘pchilik uchun qiziq. Issiqxonada bo‘shagan qoplar ichiga kartoshka ekish hadisini olgan. Shu kecha-kunduzda qopga yog‘och qirindisi, chorva go‘ngi va tuproqdan aralashma solib, har biriga bir donadan kartoshka urug‘ini ekib chiqqan. Aytishicha, bu usul ancha unumdor. Hosilning ko‘p bo‘lishini ta’minlaydi. Bir dona kartoshka o‘rtacha besh kilo hosil beradi. Bir dona urug‘lik kartoshkadan besh kilo olinadigan bo‘lsa, o‘rtacha olti ming so‘mdan hisoblaganda 30 ming so‘m daromad keltiradi. Hozir naq 200 ta qopga shu usulda kartoshka ekilgan. Demak, bir tonna hosildan olti million foyda naqd, degani. Bu issiqxonadagi bo‘sh joydan unumli foydalanish orqali kelayotgan daromad. Yana bir jihati, bozorga kartoshka ertaroq chiqadi.

Bundan tashqari, tez orada hosilga kiradigan pomidor ham kamida bir yarim ming tonnadan ortiq hosil berishi kutilyapti. Bu mablag‘ga chaqiladigan bo‘lsa, kamida 15-20 million so‘mga borib qoladi. Umumiy hisobda bitta issiqxona bir mavsumda o‘rtacha o‘ttiz million so‘mdan ortiq foyda keltirmoqda.

U faqatgina issiqxona bilan cheklanib qolgani yo‘q. Hovlisidagi 10 sotix joyga kartoshka ekishga hozirlik ko‘rmoqda. 20 sotix yerda esa to‘qsonbosti usulida ekilgan piyoz urug‘lari yetilmoqda. Erta bahorda tomorqadan chiqqan sabzavot mahsulotlari ichki bozorga chiqarila boshlanishi aniq. Shu bilan birga, bog‘dagi 30 tup olma daraxtidan yaxshigina daromad olinadi.

— Halol mehnatning noni shirin. Faqat buni anglay olsak bo‘lgani, — deydi Behro‘zning otasi keksa dehqon Nizomiddin Tursunov. — Aslida, barchasi har bir odamning o‘ziga bog‘liq. Shundoqqina eshiging oldidagi imkoniyatni vaqtida ilg‘ay olmaslikning o‘zi xato. Hovlidan turib, turmushini farovon qilib yashayotganlar kam emas. Biz ham ko‘p yillardan beri dehqonchilik, bog‘dorchilik ortidan kun kechiramiz.



Birovdan kam joyimiz yo‘q. Shukrki, hovlining o‘zidan yaxshi daromad topyapmiz. Farzandlarimizni o‘qitib, yashash tarzimizni yaxshilab oldik. Hozir o‘g‘lim Behro‘z ishlarimni davom ettiryapti. Unga doim kerakli maslahatlarni berib boryapman. Rostini aytsam, dehqonchilikda u mendan oldinlab ketdi. Yoshlarning intilgani yaxshi.

Ayni paytda bog‘da daraxtlarga shakl berish boshlangan. Behro‘z bog‘dorchilik sirlarini ham puxta o‘zlashtirish harakatida. Shu sabab har bir niholni parvarishlash jarayonlarini diqqat bilan o‘rganib bormoqda. Otasi qaysi novda kesilishi, qaysini qoldirish haqida tushuncha berishdan charchamaydi. Har bir holatga e’tiborli bo‘lgan yosh yigit hattoki qimmatli maslahatlarni yondaftarchasiga qayd qilib bormoqda. Maqsadi esa yangi g‘oyalar ustida ishlash. Kelgusida bog‘ hosildorligini oshirish uchun nimalarga diqqatli bo‘lish lozimligi haqida bosh qotirmoqda.

Bundan tashqari, yosh yigitning hovlisida o‘ttiz bosh qo‘y, o‘ndan ortiq qoramol boqilmoqda. Sigirlardan kuniga o‘n besh-yigirma litr sut sog‘ib olinadi. Xaridorlar o‘zi kelib olib ketadi. Bu ham ro‘zg‘orga naf keltirmoqda. Har yili 20 ta qo‘chqor boqib, go‘shtga topshirmoqda. Sirasini aytganda, bir yilda hovlining o‘zidan o‘rtacha ikki yuz million so‘mdan ziyod daromad topmoqda. Ushbu mavsumda esa buni yanada oshirish istagida.

Darvoqe, u xirmon ko‘tarilib, yangi mashina mingach, o‘rtoqlarini mehmonga chaqirmoqchi. Shunchaki maqtanish uchun emas, balki harakat qilgan odam tomorqasidan unumli foydalanib, shu yerning o‘zida ham yaxshi daromad topishi mumkinligini isbotlamoqchi. Qolaversa, do‘stlari bilan o‘z tajribalarini o‘rtoqlashish niyatida.

**Akbar RAHMONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Mulohaza



# ESIZ MEHNAT, ESIZ MABLAG‘

## JIZZAXDA MINGLAB KO‘CHATLAR KO‘KARMAY NOBUD BO‘LDI

**Yurtimizda o‘simliklarning 4,5 mingga yaqin turi o‘sadi. Biologik va landshaft rang-barangligi ham asosiy milliy boyliklarimiz hisoblanadi. Bugungi kunda qo‘riqxonalar va milliy tabiat bog‘lari xodimlari tomonidan nafaqat o‘z hududidagi tabiiy boyliklarni asrash, balki aholi o‘rtasida muhofaza etiladigan tabiat boyliklarining nechog‘liq muhimligini tushuntirish, atrof-muhit ozodaligi va bioxilma-xillikni saqlash bilan bog‘liq targ‘ibot-tashviqot ishlari ham olib borilmoqda.**




Lekin bugun jiddiy xavf bilan yuzma-yuz kelganimizda targ‘ibot-tashviqot ishlari bilan chegaralanmay, qat’iy choralar qo‘llashimiz zarurligini tushunib yetdik.

Shu o‘rinda bugungi kunda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, sho‘rlanish, tuproq eroziyasi va boshqa muammolarga yechim bo‘layotganini e’tirof etish zarur. Dunyodagi boshqa davlatlarda ekologiya bilan bog‘liq muammolarni hal etish bo‘yicha tajribalarga nazar tashlasangiz, XXRda hozirgi kunga qadar davom etayotgan daraxt ekish, “yashil belbog‘lar” (ihotalar) barpo etish orqali cho‘llanishni to‘xtatishga muvaffaq bo‘lingani e’tiborga molik.

O‘tgan asrning 70-yillarida Xitoydagi Gobi va Taklamakon cho‘llari halokatli darajada kengaya boshlagani, qumliklarning madaniy o‘simliklar o‘sayotgan maydonlarga kirib kelgani Xitoy xalqini tashvishga solib qo‘ygan edi. 1978-yilda XXR hukumati tomonidan maxsus dastur ishlab chiqilib, uni amalga oshirishga kirishildi. Ya’ni ikkita katta cho‘l atrofida yashil “belbog‘”lar barpo etilishiga millionlab aholi jalb qilindi. Natijada cho‘llanish jarayoni nafaqat to‘xtatildi, balki qumliklar yutib yuborgan ekinzorlar qaytarib olindi. Endilikda xitoyliklar cho‘llarni chekinishga majbur etib, ekinzorlarni kengaytirish uchun kurash boshlagan. Bu kurashda ham ko‘chat ekish, ihotalar barpo etish asosiy qurol vazifasini bajarmoqda.

Mamlakatimizdagi mavjud cho‘l hududlari kengayib borishi oziq-ovqat xavfsizligiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Natijada ekinzorlar hosildorligi pasayib, ekin maydonlari hududi yildan yilga qisqarmoqda. Aholi soni ortib borayotganini hisobga olganda, bu bong urishga asosli xabardir. “Yashil makon” umummilliy loyihasi biz uchun shu qadar muhimki, uning ijrosini ta’minlashga yoshu qari birdek mas’ul.

2024-yilning bahor mavsumida Jizzaxda 9,8 million tup ko‘chat ekilishi belgilangan edi. Viloyat bo‘yicha jami 10,6 million tup ko‘chat ekilib, reja 107 foiz bajarildi. Tuman (shahar) ekologiya inspeksiyalari tomonidan jami 294 ta korxona va tashkilotga manzarali, mevali daraxtlar va butalar hamda ko‘chatlarni oziqlantirish va parvarish qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Ammo ko‘rsatmalarni o‘z vaqtida bajarmagani, sug‘orish ishlarini tashkil etmagani hamda daraxtlar va ko‘chatlarni muhofaza qilish choralarini ko‘rmagani, payhon qilish holatlari bo‘yicha 167 nafar mas’ul xodimga 543 million 730 ming so‘m ma’muriy jarimalar qo‘llandi.

Yoz va kuz mavsumida havo harorati keskin oshib ketgan vaqtlarda ekilgan daraxt va buta ko‘chatlari qurib qolishining oldini olish, ekilgan ko‘chatlarni saqlab qolish maqsadida 4 million 700 mingdan ortiq ko‘chat sug‘orildi.

Shuningdek, 2024-yil kuzgi ko‘chat ekish mavsumida viloyat bo‘yicha 6 million 668 ming 570 tup manzarali daraxt va buta ko‘chati ekilib, belgilangan reja 105,2 foiz bajarildi.

Xullas, bahorgi va kuzgi ekish yakuni bo‘yicha viloyatda 17 million 268 ming 570 tup ko‘chat ekildi. Agar shu sur’at saqlab qolinsa, viloyatda yashil maydonlar sezilarli kengayadi.

Ammo qog‘ozdagi hisobotlarga qarab ish ko‘rilganida hamma yoq daraxtzorga aylanib ketgan bo‘lardi. Afsuski, unday emas, ayrim tashkilot va muassasalar raqamning ortidan quvib, yer holati, kunning ekishga mosligi, sug‘orish imkoni, sharoitning hisobini olmay ko‘chat ekishga zo‘r berdi. Natijada minglab ko‘chatlar ko‘karmay qurib qoldi. Qancha mehnat, qancha mablag‘ havoga sovurildi.

Hududlarda ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlari ko‘karuvchanligini ta’minlash uchun sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagan yerlarga hamda yoshi 5 yildan kam bo‘lgan ko‘chatlarning ekilishi taqiqlangan bo‘lsa-da, joriy yilning bahor mavsumida Arnasoy, Baxmal, G‘allaorol, Sh.Rashidov, Zomin, Zarbdor, Zafarobod, Forish va Yangiobod tumanlarida jami 14 ta korxona, tashkilot va muassasa tomonidan 42 ming 390 tup ko‘chat sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagan yerlarga ekilgan.

Yangi quriladigan bino va inshootlarni loyihalashtirishda ularga tutash hududlarning ko‘kalamzorlashtirish maydonlari loyiha uchun ajratiladigan yer uchastkalari umumiy maydonining 25 foizidan kam bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi deb belgilangan. Ammo ushbu masalaga qurilish tashkilotlari, buyurtmachi, loyihachi, pudratchi tomonidan e’tibor berilmay, qurilishlar loyihalashtirilib, foydalanishga topshirib yuborilmoqda.

Shu bilan birga, davlat ahamiyatidagi avtomagistrallar atrofida tashkil etilayotgan “yashil belbog‘”lar sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagani hamda agrotexnika qoidalariga rioya etilmagani sababli unuvchanlik darajasi pastligicha qolmoqda. Tuman (shahar)larning ichki va markaziy ko‘chalarida ekilgan ko‘chatlar qurib qolish holatlari ko‘p uchramoqda.

Yuqorida keltirilgan 42 ming 390 tup ko‘chatning aksariyati bahorgi ekish davrida o‘tqazilgan va ko‘karmagani aniqlangan. Kuzgi ekishda ko‘karmaydiganlari endi ma’lum bo‘ladi. Bunday ko‘zbo‘yamachilik, mablag‘larni havoga sovurish hisobiga rejani bajargandan bajarmagan ma’qul emasmi? Esiz…

Tez orada bahorgi ekish mavsumi boshlanadi. Lekin aqli bor rahbarlar, mahalla yetakchilari qishning iliq kunlaridan foydalanib, belgilangan joylarga allaqachon ko‘chat va buta nihollarini ekib qo‘ydi. Yangi mavsum oldidan yo‘l yoqalarida avval sug‘orish tizimini shakllantirib, keyin ko‘chat ekishni boshlash kerak.

Shuningdek, cho‘l hududlarida ham ihotalar yaratishdan avval ularni sug‘orish tashvishini qilib qo‘yish zarur. Aks holda, qumliklar sezdirmay ekinzorlarga kirib keladi.

**Asad MUSTAFOYEV,**
**jurnalist**

Ma’rifat bulog‘i



# BARQAROR MA’NAVIY TARAQQIYOTNING MUVAFFAQIYAT FORMULASI



**Yangi O‘zbekistondagi barcha yangilanish va o‘zgarishlar, avvalo, xalqimiz manfaati yo‘lida, fuqarolarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda istiqbolni ko‘zlab amalga oshirilmoqda. Yurtimizda muqaddas islom dini an’ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, haqiqiy e’tiqod bilan soxta diniy qarashlarni aniq ajratish, yoshlarning yot g‘oyalar ta’siriga tushmasligi chorasini ko‘rish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, bu borada salmoqli ishlar qilinmoqda.**

**Shahzod ISLOMOV,**
**tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, islomshunos**

O‘tgan yili 2-dekabrda Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarga bag‘ishlab o‘tkazilgan taqdimotda dunyoning yetakchi olimlari mamlakatimizda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash sohasida yuritilayotgan siyosat tahsinga loyiq ekani, bu Markaziy Osiyodagi barqarorlikka katta ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini e’tirof etgani ham yuqoridagi fikrlar tasdig‘idir.

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan hayotiy tamoyilga asoslangan islohotlar ko‘pmillatli xalqimizning faol qo‘lloviga erishmoqda. Bunday oqilona chora-tadbirlar samarasini diniy sohada yaqqol ko‘rib, his qilish mumkin. Jumladan, o‘tgan yetti yilda 91 ta masjid davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lsa, noislomiy jamoalarning 23 ta yangi diniy tashkiloti faoliyat boshladi.

## Vijdon erkinligining mustahkam huquqiy asosi

Yangi O‘zbekistonda fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ta’minlashning normativ-huquqiy asoslari to‘liq yangilandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston dunyoviy davlat ekani, inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi e’lon qilindi. Shuningdek, 2021-yilda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilinib, diniy tashkilotlar emin-erkin faoliyat yuritishining qonuniy asoslari kafolatlandi. 2017-yildan shu vaqtga qadar diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tartibga solishga oid 3 ta qonun, Prezidentimizning 36 ta farmon, qaror va farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 19 ta qarori qabul qilindi.

Diniy-ma’rifiy soha o‘ta nozik va murakkab bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi har qanday qaror uzoqni o‘ylab, xalqimiz ta’biri bilan aytganda, yetti o‘lchab bir kesish tamoyili asosida qabul qilinmoqda. Ayni vaqtda xalqning uzoq yillik tarixiy tajribasi, e’tiqodiy o‘ziga xosligi, istiqboldagi orzu-intilishlarini inobatga olmagan chora-tadbirlar hech qanday naf keltirmasligini o‘tgan yillar tajribasi ko‘p bora isbotladi. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining diniy sohada qabul qilinadigan har qanday normativ-huquqiy hujjatni shoshma-shosharlikka berilmay, xalqimiz manfaatlaridan kelib chiqib qabul qilish bo‘yicha tashabbuslarini oqilona tadbir sifatida baholash mumkin.

Diniy sohada barqaror siyosatning tayyor modelini chetdan import qilib bo‘lmaydi. Albatta, bu borada xalqaro tajriba muhim ahamiyatga ega. Lekin har qanday tajriba milliy-diniy qadriyatlarimizni hurmat qiladigan, O‘zbekistonning ko‘pmillatli va ko‘p konfessiyali sharoitini hisobga oladigan, eng asosiysi, milliy manfaatlarimizga mos bo‘lishi lozim.

## Global xalqaro tashabbuslar dunyo e’tiborida

O‘zbekiston Prezidenti xalqaro maydonda islomning ezgulik, ilm-ma’rifat va bag‘rikenglikka asoslangan ta’limotini ochib berish, ekstremizm, terrorizm va islomofobiyaga qarshi kurashishga qaratilgan global g‘oya va tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Jumladan, 2016-yil 18-oktabrda Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasi yig‘ilishida O‘zbekiston yetakchisi tomonidan Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish taklifi bildirildi.

Prezidentimiz 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etib, xalqaro maydonda islom diniga nisbatan kuzatilayotgan bir yoqlama salbiy munosabatga nisbatan o‘zining qat’iy pozitsiyasini ifoda qilib, jumladan, bunday dedi: “Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”.

BMT minbarida turib davlatimiz rahbari O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish loyihasi haqida so‘zladi. Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risida”gi maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Rezolyutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu tashabbus hamjamiyatga a’zo 100 dan ortiq davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.



## Ta’limga asoslangan islohot poydevori

Bugungi murakkab va tahlikali davrda zamonaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan, chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega mutaxassislar tayyorlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu maqsadda O‘zbekistonda diniy ta’lim muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda. 2018-yilda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ta’sis etildi. Akademiya mamlakatda islomshunoslik, dinshunoslik, manbashunoslik sohalarida kadrlar tayyorlovchi tayanch ta’lim muassasasidir.

Bundan tashqari, imom-xatiblarning bilim va kasbiy malakasini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining malaka oshirish markazi va uning 4 ta hududiy filiali faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Unda har yili yuzlab imom-xatib bugungi talablardan kelib chiqib, bilim va ko‘nikmasini oshirmoqda.

Buyuk ajdodlarimiz asos solgan hadis maktablari faoliyatini tiklash va rivojlantirish, ular qoldirgan boy ilmiy merosni o‘rganish maqsadida Samarqandda Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. Buxoro viloyatidagi mashhur diniy ta’lim muassasasining musulmon dunyosidagi o‘rni va nufuzi, diniy xodimlar tayyorlashdagi ahamiyati e’tiborga olinib, Mir Arab oliy madrasasi tashkil etildi. Mazkur madrasa faoliyati davomida nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham diniy va dunyoviy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan kadrlar yetishtirib bergan. Bugungi Rossiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi davlatlardagi nufuzli ulamolar, din arboblari aynan Mir Arab madrasasining bitiruvchilaridir.

Shuningdek, qadimiy Termiz zaminida buyuk muhaddis Imom Termiziy nomi bilan ataladigan yangi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, institut va diniy ta’lim muassasasi faoliyat boshladi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Termiziy, Hakim Termiziy va boshqa termiziy allomalarning 30 dan ziyod asari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

Musulmonlar e’tiqodini to‘g‘rilovchi, hidoyatga boshlovchi degan ulug‘ sharafga muyassar bo‘lgan ajdodimiz, alloma Imom Moturidiy ilmiy merosining bugungi dolzarb ahamiyatini e’tiborga olib, 2020-yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil qilindi. Hozirga qadar markaz tomonidan buyuk ajdodimiz qalamiga mansub “Ta’vilot al-Qur’on”, “Kitob at-Tavhid” asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Mazkur markazlar xalqimiz va musulmon ahliga islom dinining asl ta’limotlarini yetkazishga xizmat qilmoqda. Yoshlarning yot oqimlar ta’siriga tushishining oldini olish, ularni ilm-fanga rag‘batlantirish, yuksak axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda “Jaholatga qarshi ma’rifat” ezgu g‘oyasi asosida faoliyat yurituvchi ushbu muassasalar muhim ahamiyatga ega.



## Diniy sohaga yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik

O‘zbekistonda diniy soha xodimlari, jumladan, imom-xatiblarning jamiyatda ahillik va barqarorlikni mustahkamlashdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ziyoratgohlar, masjidlar, diniy ta’lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Vaqf” xayriya jamoat fondi tashkil etildi.



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan dinu diyonatimiz, ulug‘ allomalarimizga hurmat ramzi sifatida 500 dan ortiq masjid va madrasa, tabarruk ziyoratgohlar ta’mirlandi. Xususan, Toshkent shahrida “Imom Termiziy”, “Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf”, “Suzuk ota”, Qarshi tumanida “Abu Muin Nasafiy” masjid majmualari, Namanganda Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohi, Buxoroda Bahouddin Naqshband va yetti pir ziyoratgohlari kabi ko‘plab tabarruk manzillarda keng ko‘lamli qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi.

Xuddi shunday bunyodkorlik ishlari Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasida ham jadal davom etmoqda. Muhaddislar imomining qabri joylashgan ushbu go‘zal majmua 2025-yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu tabarruk makon dunyo musulmonlarining e’zozi, e’tibori va ehtiromidagi manzilga aylanadi.

Bunday bunyodkorlik ishlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad buyuk o‘tmishni hozirgi kun bilan bog‘lash orqali xalqimizning ma’naviy salohiyatini oshirishdir.

## Bag‘rikenglik va milliy tajriba

Movarounnahr — hozirgi O‘zbekiston zamini ilm-fan va madaniyatning tarixiy markazlaridan biri bo‘lgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi allomalar, buyuk mutafakkirlar o‘z davrida Sharqda Birinchi va Ikkinchi Renessansni boshlab bergan.

Ushbu sohadagi islohotlarning yana bir muhim maqsadi — O‘zbekistonning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan buyuk hissasini targ‘ib qilish orqali yoshlarni ma’rifatga rag‘batlantirish, innovatsion rivojlanishning boy milliy merosga asoslangan yangi taraqqiyotiga yo‘l ochishdir.

O‘zbekistondagi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan dunyoning yetakchi islomshunoslik markazlari bilan hamkorlikda buyuk allomalarimizning ilmiy merosiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalar o‘tkazilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018-yilda Abduxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband, 2020-yilda Imom Moturidiy, 2024-yilda Imom Termiziy ilmiy merosiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlarda jahonning 100 dan ziyod nufuzli ulamosi, ilmiy doira vakillari ishtirok etdi.

Shuningdek, O‘zbekiston rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ilgari surilgan tashabbus doirasida o‘tgan yili Toshkent va Xiva shaharlarida “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazildi. 22 mamlakatdan 70 dan ortiq din arbobi, muftiy va taniqli ulamolar ishtirok etgan ushbu nufuzli anjumanda jahonda tinchlik o‘rnatish, urush va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish zarurati ta’kidlandi, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha mamlakatimiz tajribasi namuna sifatida ko‘rsatildi.

## Dushman emas, do‘st tutish siyosati

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turli yot oqimlar ta’siriga berilib, qilgan ishidan pushaymon bo‘lgan fuqarolar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanib, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam berilmoqda. Qilgan xatosini anglab yetgan va tuzalish yo‘liga kirgan shaxslarning oilasi bag‘riga, tinch hayotga qaytishiga imkoniyat yaratildi.

Davlatimiz rahbarining kechirimlilik va yuksak insonparvarlik siyosatining amaldagi in’ikosini Suriya va Iroqdan mamlakatimizga qaytarilgan yurtdoshlarimiz misolida ham ko‘rish mumkin. “Mehr” nomli maxsus operatsiyalar doirasida 500 ga yaqin ayol hamda bolalar urush o‘choqlaridan yurtimizga qaytarildi.

Bu ishlar jamiyatda radikalizm va ekstremizmning oldini olish, xalqimiz, xususan, yoshlarning islomning bunyodkorlik, ilm-ma’rifat va asl insoniylikka yo‘g‘rilgan ta’limotini to‘g‘ri anglab, unga amal qilishiga erishishda g‘oyat muhim o‘rin egalladi.

Odamlarning bilimi, dunyoqarashini oshirmay turib, barqaror ma’naviy muhitni ta’minlash amri mahol. Binobarin, ekstremistik va terrorchi tashkilotlarning faoliyat uslubiga e’tibor berilsa, ular asosan jamiyatning zaif ijtimoiy qatlamlari, bilim saviyasi past, tanqidiy fikrlash salohiyatiga ega bo‘lmagan toifadagi shaxslar bilan ishlashga diqqat qaratishi ayon bo‘ladi.

Shu bois, mamlakatimizda ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilishi, ayniqsa, maktab ta’limini rivojlantirish, yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘rgatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar uzoqni ko‘zlagan, strategik ahamiyatga ega ishlardan biri ekanini ko‘rish mumkin. Mazkur sohadagi yutuq va muvaffaqiyatlar xalqaro miqyosda nufuzli ekspertlar tomonidan alohida e’tirof etilayotir.

O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlar fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash, yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, din asoslarini chuqur tushunadigan malakali kadrlar tayyorlashga zamin yaratib, jamiyatda tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini saqlashga xizmat qilmoqda.

Kun nafasi

**Bugun mamlakatimizda pedagoglarning ma’naviy qiyofasi, kasbiy mahorati, talabalarning aqliy salohiyati hamda oliy ta’lim muassasalari nufuzini oshirishga jiddiy talablar qo‘yilgani samarasini ko‘rsata boshladi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining kimyo va biologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari jahonning eng nufuzli tashkiloti bo‘lmish ASIIN xalqaro agentligining akkreditatsiya jarayonidan muvaffaqiyatli o‘tgani taraqqiyot yo‘lida og‘ishmay harakatlanayotganimizdan dalolat.**

**Kuni kecha mazkur ASIIN tomonidan universitetning xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan 4 ta ta’lim yo‘nalishiga sertifikat topshirishga bag‘ishlangan tadbir tashkil etildi.**



# XALQARO SERTIFIKATLAR

## UMUMSAVIYA RIVOJI VA SAMARALI FAOLIYAT KAFOLATIDIR

**Abdug‘affor QIRG‘IZBOYEV, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori:**

— Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida universitetni 2022-2026-yillarda transformatsiya qilish va kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlangach, asosiy vazifalar qatorida universitetda ta’lim dasturlari mazmunini xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan xorijiy OTMlar dasturlari asosida takomillashtirish, 2025-yilgacha vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda o‘quv dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish vazifasi qo‘yilgandi. Universitet ilmiy-pedagogik jamoasi bu vazifa mas’uliyatini chuqur his etgan holda barcha imkoniyatlarni o‘qitish sifati va samaradorligiga yo‘naltirdi. Zero, bugun oliy ta’lim muassasasining nufuzi, ta’lim sifati xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgani bilan o‘lchanadi. Universitetda ta’lim dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish uchun 67 mamlakatdagi

376 ta OTMning 6600 dan ortiq ta’lim dasturini akkreditatsiyadan o‘tkazgan ASIIN tashkiloti bilan hamkorlik qilishga kelishildi.

Eng avvalo, mazkur ta’lim yo‘nalishlari talabalari o‘qiydigan bino zamon talablari darajasida to‘liq kapital ta’mirlandi. Kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlari xususiyatidan kelib chiqib, Islom taraqqiyot banki homiyligida qariyb 2,5 milliard so‘mlik zamonaviy o‘quv laboratoriya jihozlari xarid qilindi va o‘qitish jarayoniga tatbiq etildi. Ta’lim dasturlari mazmunan qayta ko‘rib chiqildi, Milliy malakalar ramkasi asosida Yevropa malakalar ramkasiga mazmunan muvofiqlashtirildi. O‘quv rejalar ilm-fan yutuqlarini aks ettiruvchi amaliy xarakterga ega fanlar bilan boyitildi.

Bu to‘rtburchak ramka ichidagi bir-ikki og‘iz ajnabiy so‘zdan iborat sertifikatlar uchun nega buncha quvonyapmiz? Boisi bu — bir vosita. Shu qog‘oz universitet, umuman, yurtimizdagi OTMlar obro‘siga, ta’lim jarayoniga, bugungi talaba dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu hali boshlanishi. Rejalar nihoyatda ko‘p. Ayni damdagi kichik muvaffaqiyatimizni jimjimador so‘zlar bilan emas, yaqin kunlarda erishiladigan marralar bilan isbotlasak, jamiyatimizning ham, davlatimizning ham oldida vijdonimiz toza bo‘ladi, nazarimda.

**Qalandar SAFAROV, universitetning tabiiy fanlar fakulteti dekani:**

— Muhandislik, informatika, tabiiy fanlar va matematika bo‘yicha ta’lim dasturlarini akkreditatsiya qilish agentligi (ASIIN) 1999-yil iyulda tashkil etilgan. U — notijorat birlashma. ASIIN xorijiy universitetlarga dasturiy va institutsional akkreditatsiya tartib-qoidalarini amalga oshirishda ekspertlik yordamini ko‘rsatadi. Milliy va xalqaro miqyosda ASIIN muhandislik, tabiiy fanlar, matematika, informatika, shuningdek, tibbiyot va iqtisodiyot sohalarida ta’lim dasturlarini akkreditatsiya qilish jarayonida yetakchi sifatida tan olingan.

Mana shu tashkilot universitetimizning kimyo va biologiya yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriat va magistratura ta’lim dasturlarini 2024-yil iyunda ichki, avgustda tashqi auditdan o‘tkazdi hamda ushbu dasturlarning xalqaro standartlarga mosligi to‘g‘risida xulosa berdi. Taqdim qilingan audit hisobotida universitetda ta’lim jarayoni ilmiy faoliyat bilan uyg‘unlashgani, ta’lim oluvchilar moddiy-texnik baza va laboratoriya imkoniyatlari bilan yetarlicha qamrab olingani, ta’lim olish uchun qulay sharoitlar yaratilgani, sohaning yetuk mutaxassislari o‘quv jarayoniga jalb etilgani alohida ta’kidlandi.

* * *

Shunday qilib, universitet yurtimizda ASIIN agentligi tomonidan xalqaro akkreditatsiya sertifikati berilgan 3 ta OTMdan biri bo‘ldi. Erishilgan ushbu yutuq ta’lim dasturlarining xalqaro darajada tan olinishi, universitetning jahon maydonidagi nufuzi ortishida muhim ahamiyatga ega.

**Aziz BAXTIYOR, jurnalist**



Ustoz-shogird an’anasi

# IKKI ASRLIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA NAZAR:

# AMIRLIK DAVRIDAN BUYON KABOBPAZLIK BILAN MASHG‘UL SULOLA

**Keyingi yillarda biznes sohasida zalvorli kitobga jo bo‘lgulik o‘zgarishlar yuz berdi. Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy sharti ko‘p tarmoqli iqtisodiyotni va raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy, tashkiliy shart-sharoitlari vujudga kelishidan iboratligi uchun xususiylashtirishga va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirib, ildizini baquvvat qilishda bozor muhitini yuzaga keltirishning asosiy omili kichik biznesni rivojlantirishdir. Oilaviy biznes esa mana shu bosh omilning yo‘nalishlaridan biri.**

Oilaviy biznes nafaqat oila, balki jamiyat va davlat uchun ham birdek manfaatli. Boisi, har bir oila o‘zi yuqori darajada foyda olish bilan birga jamiyat uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqaradi va xizmat turlarini ko‘paytiradi. Mamlakat uchun yangi bozorlar vujudga keltiradi, aholini ish bilan band qilishga hissa qo‘shadi, boshqa tashkilot va oilalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar iste’molchisi hamda foydalanuvchisi sifatida yuzaga chiqadi. Muayyan turdagi soliqlarni to‘lab, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradi. Ushbu vazifalarni bajarish davomida yetti-sakkiz yilda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tarmoq ko‘lami hamda hajmi salmoqli darajada o‘sdi. Oilaviy biznes bilan shug‘ullanayotgan oilalar soni va shunga mos ravishda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib bormoqda.

Bir necha asrdan buyon tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib, kasbni, hunarni sulolaviy zanjirga bog‘lagan, o‘ziga xos tarix yaratayotgan oilalar oilaviy biznes boshlash niyatidagilar uchun chinakam hayotiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular iqtisodiyotimizga, bundan tashqari, turizm rivojiga baholi qudrat hissa qo‘shadi. Bu ma’naviy meros mahalliy jamoalar va an’anaviy bilim egalarining ehtiyojlari uchun saqlab qolingan, moslashtirilgan hamda hayotning turli sohalarini rivojlantirishda muayyan qiymatga ega.

Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida kabobpazlarning butun bir sulolasi faoliyat yuritadi. Ularning ajdodi amirlar davridan beri shu hunar bilan shug‘ullanib keladi.

2023-yil 29-mayda G‘ijduvon kabobiga geografik ko‘rsatkich maqomi berilgan. Tadbirkorlik sohasini tabiiy ravishda targ‘ib qilayotgani uchun ham bu ajoyib sulola vakillari bilan suhbatlashishni niyat qildik.

## Ishbilarmonlikning “g‘ijduvoncha” topilmasi

G‘ijduvondagi dong‘i ketgan kabobpaz oilaning to‘rtinchi avlodi Xayrullo bobo bilan o‘tgan naqd ikki soatlik dilkash gurungdan so‘ng o‘zim uchun quyidagi xulosani kashf etdim: oilaviy ijtimoiylashuv jarayonida farzandlar ota-onasidan nafaqat genetik qobiliyat, balki sotsial muhitda muttasil rivojlanish uchun zarur bo‘ladigan qator ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni, munosabat o‘rnatish namunalarini, o‘ziga xos ishbilarmonlik uslubini ham o‘zlashtirar ekan.

Soddaroq tushuntirsak, salkam ikki asrlik tarixga ega kabobning ta’midan bahramand bo‘lishni istagan har bir odamni kulib kutib oladigan, xo‘randa xoh yaqin qo‘shni bo‘lsin, xoh chet ellik mehmon, bir xil muomala qiladigan Xayrullo boboning undan oldingi va keyingi avlodlarining munosabat o‘rnatish usullari ham xuddi shunday: dastlab mehmonlarga peshvoz chiqadi, so‘ng ularning ko‘z oldida kabob pishiradi, sixdan ajratib dasturxonga tortadi va xo‘randa bilan birga o‘zi ham tanovul qilib, kabobning sirli mazasi ustida yengil bahslashadi. O‘tgan-ketgan gaplardan chaqchaqlashib, bir muddat mehmonni dunyo tashvishlaridan “ozod” etadi. Oilaning ushbu ichki tadbirkorlik madaniyati, “g‘ijduvoncha” topilmasi meros bo‘lib o‘tishini ilk bor ko‘rganim uchun hayratimni yashirolmadim.

— Hamma shunday: siz kabi hayratlanadi, lekin buning ajablanadigan joyi yo‘q. Kelganlar bu tarzda kutib olish sizning “tashrif qog‘ozingiz”, deydi. Qaydam, bo‘lsa bordir, ammo bundan hech bir manfaat ko‘zlanmaydi. Atay kimningdir ko‘nglini ovlab, cho‘ntakni qappaytirishni niyat qilmaymiz. Shunchaki bu qonimizda bor, har xil odam bilan turli mavzuda gaplashishni istaymiz. Ularni rozi qilish, eshikdan chiqib ketayotganda, taom haqini berayotganda ich-ichidan minnatdor bo‘lishi uchun mehr ko‘rsatish lozimligini bobom ham uqtirgan, men ham farzandlarimga shuni o‘rgatganman. Otam meni yoki men o‘g‘illarimni bu hunarni qilishga majburlamaganmiz. Bolaligimizdan shu muhitda yurib, mehrimiz tushgan. O‘zim ham maktabdan keliboq kabob pishirishga tushib ketardim. U vaqtlar tonnalab go‘shtni omborda ertangi kun uchun tayyor holatga keltirardik. 12 yoshdan kabobpazlik etagidan tutdim. Hozir yoshim oltmishdan oshdi. Taqdirimdan xafa emasman, har qalay o‘zim sevib o‘rgangan kasbim-da. Shu ishning nonini yeb katta bo‘ldik, shu orqali ozmi-ko‘pmi obro‘ topdik. Muhimi, qadrlaydigan ne’matim, asraydigan xotiram bor, — deydi Xayrullo Muhammedov. — Choyxonadan, ko‘rib turganingizdek, xo‘randalar oyog‘i uzilmaydi. So‘rilar qo‘yilgan, bedanalar ovozi bilan haqiqiy o‘tgan asrlar nafasi sezilib turadi. Shuning uchunmi, bu kaboblarni sevuvchilar faqat o‘zbekistonliklar emas, bizga xorijdan ham mehmonlar keladi. Kabobni sayyohlar ko‘z o‘ngida pishirib ko‘rsatamiz. Orasida qiziqadiganlar bo‘lsa, birgalashib tayyorlaymiz. Kabob bunday mazali chiqishining siri nimada ekani haqida kelgan har bir odam so‘raydi. Yarim hazil, yarim chin qilib, siri — halollikda, deyman. Chindan, avvalo niyatga bog‘liq. Hammani hayratlantiraman deb emas, odamlar oldida yuzimiz yorug‘ bo‘lsin deb ish boshlaymiz. Yaxshi kabobning siri qassob ham, go‘sht ham bo‘lishi mumkin. Yoki ob-havodanmi, ochig‘i, bilmadim. Bu ish asosan halollikni talab qiladi. Go‘sht halol bo‘lsa, rizqimiz halol bo‘ladi, yurish-turishimizga baraka kiradi. Yurt rivoji uchun ham halol fuqaro kerak axir. Aytgancha, tumanimizda misli ko‘rilmagan ishlar bo‘lyapti. O‘qimadim, dedim, ko‘p ilmiy narsalarga fahmim ojizlik qilsa-da, tadbirkorlikni har taraflama qo‘llayotgan davlatimizda faqat javlon urib mehnat qilish kerakligini juda yaxshi anglayman. Shu maqsadga, g‘oyaga nafimiz tegsa, biz baxtlimiz, niyatimiz ham shu.







Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

## Qalb amri ila

— Biz kabobpazlarmiz, shu mavzudan yuqorilay olmaymiz. Ammo tushuntirishni xohlagan, biroq sira tuzib berolmaydigan jumlalarim bor. “Ota kasb” degan so‘zning zalvori bo‘lak. Bu mas’uliyatni yelkaga oldingizmi, siz temir sixga chiroyli shaklda kesilgan go‘sht bo‘laklarini shunchaki terib, nari-beri yigirma daqiqada yelpib-yelpib pishirmaysiz. Bu burch, otam aytganidek, birov boshimizda turib majburlamaydi, hammasini qalb amri bilan bajaramiz. Otamiz pishiradigan kabob turi 20 xildan ortiq. Bu yerda qo‘y go‘shti, jigari, go‘shtning lahm joyi, qovurg‘asidan tayyorlanadigan kaboblar bor. Mijoz istagiga qarab pishirib beraveramiz. Kabob degan bilan o‘zi bo‘lmaydi. Eng shirin go‘sht bu — juda katta ham, kichik ham bo‘lmagan g‘unajinniki. Molning biqin, qo‘ltiq tomonidagi go‘shti yumshoq bo‘ladi. Ma’lumot uchun aytdim-qo‘ydim-da, — deydi Xayrullo boboning o‘g‘li, ishbilarmon sulolaning beshinchi avlodi Habibullo Yusupov. — Ustoz-shogird an’anasi tiklandi. Yurtimizda bunga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Bu juda yaxshi o‘zgarish. Ayni paytda otamning ellikdan ortiq shogirdi bor. Ularning ba’zilari Toshkent, Zarafshon shaharlarida, shuningdek, Turkiya, Rossiya, Kavkaz tomonlarda kabobpazlik qilyapti. O‘z oshxonalarini ochgan. Yana shogird kelsa, bosh ustiga deb qabul qilamiz. Hech kim kasbini o‘zi bilan olib ketmaydi. O‘rganib menga, otamga rahmat desa, duo qilsa, shuning o‘zi yetadi. Kasb tanlash borasida esa omadim chopgan deb o‘ylayman. Farzandlarning keyinchalik otasi kasbini egallamasligiga ota-ona ta’sirida shakllangan salbiy taassurot sabab bo‘ladi. Shuning uchun uyda — farzandlar davrasida o‘z xizmati, ishi yuzasidan salbiy gaplar aytmaslik va bolada mehnat to‘g‘risida noto‘g‘ri fikrlar uyg‘otmaslikni tavsiya qilardim. Ishidan mamnun otamni yillab kuzatdim. Har bir harakatidan baxtli ekani sezilardi. U biror marta bekor shu kasbni tanlabman, deb yozg‘irmagan, nolimagan. Hunar avlodlar osha meros bo‘lib kelayotgani uchun uning ulug‘vorligiga shubha qilmagan. Kasbga hurmat bilan qaragan. Men ham shu hunar davomchisi ekanimdan faxrlanaman.

Habibullo aka bilan gaplashish mobaynida o‘ylab qoldim: demak, ota-onaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, kasbiy mavqei, ijtimoiy aloqalar tizimi shaxsning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi hamda “ota kasb” davomchisining kasbiy bilimdonligi darajasini belgilab beradi.

— Oiladagi farzandlar va nabiralarning ota kasbini egallab, tarix fani o‘qituvchisi bo‘lishining sababi nimada, deb so‘rasangiz, ular amakisining Amir Temur yoki Mirzo Bobur haqidagi qiziqarli suhbatlariyu qadimgi odamlarning g‘alati odatlariga oid rivoyatlar, cho‘pchaklar ularda shu sohaga qiziqish uyg‘otganini alohida e’tirof etadi. Nabiralar o‘zidagi, deylik, fizika faniga ishtiyoqni oilaviy kutubxonaning aksariyat qismi fizikaga oid sirli kitoblardan iboratligiyu har xil antiqa tajribalar o‘tkazish uchun zarur uskunalar bilan jihozlangan xona mavjudligi bilan izohlaydi. Ota-onaning farzandlari qalbida kasb egalariga hurmat hamda g‘ururlanish hissini rivojlantirishi kasbiy sulolaning vujudga kelishiga zamin yaratsa kerak deb o‘ylayman, — deydi Habibullo Yusupov.

Darhaqiqat, oilaviy merosga ega kasbiy sulola vakili o‘ziga ishongan holda hamkasblari bilan munosabatdan qanoat hosil qiladi va tanlagan faoliyatida o‘zini erkin his qiladi. Bu voris avlod ichki intilishining yaqqol namoyon bo‘lish imkoniyatini oshiradi. Kasbiy sulola vakilining qulay psixologik atmosfera yarata olish qobiliyati va oilaviy “kasb zaxirasi”ga ega ekani unda kasbga oid moddiy va ma’naviy resurslarning mavjudligidan dalolat beradi. Unda ta’lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish motivatsiyasi qolgan odamlarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Eng ajoyib tarafi, sulolaning davomchisida meros ta’sirida shakllangan insoniylik madaniyati, ota kasbini egallash, oilaviy ishni davom ettirishga doir kuchli e’tiqod atrofdagilarda shijoat uyg‘otadi.

Buxoroda, ayniqsa, G‘ijduvonda Xayrullo bobo kabi ota kasbini davom ettirganlar ko‘p bo‘lgani uchun ham bu erda boshqa tumanlardagiga qaraganda tadbirkorlar, ishbilarmonlar soni yuqori va ular munosib hayot sharoiti yaratishda davom etmoqda. Bugungi islohotlarning asosiy maqsadi ham shu.

Binobarin, bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida amaldagi islohotlarning pirovard natijasi oilalar iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan. Ushbu farovonlikka erishish ko‘p hollarda oilada tadbirkorlikni yuritish bilan bog‘liq. Qolaversa, jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri uning negizini tashkil etuvchi har bir oilaning to‘kin, farovon turmush kechirishidir.

**Azizbek YUSUPOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Sog‘lom turmush tarzi

# PIYODA YUR, YUGUR, HARAKATDA BO‘L!

**Qo‘shtepa tumani “Qorajiyda” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Karimjon Hakimov bu yil 77 yoshni qarshi oldi. Ammo harakatlari chaqqon, nigohlari teran, so‘zlari ma’noli. Bu bejiz emas, albatta.**

U bir necha yildan buyon sog‘lom turmush tarziga amal qiladi. Piyoda yurish, jismoniy mashqlar bajarish, velosiped minishga odatlangan. Nuroniyning bu sa’y-harakatlari bugunga kelib mahallada ommalashdi. Ular erta tongda jismoniy harakatlar orqali badanlarini qizdirib, piyoda yuradi, yugurish mashqlarini bajaradi va albatta, velosipedda sayr qiladi. Bugungi kunda bu jamoa safida 120 dan ziyod faxriy, 200 dan ortiq yosh ommaviy sport va velosport turlari bilan shug‘ullanib kelyapti.

— O‘n to‘rt yildan buyon sport-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanaman, — deydi keksa sportchi Karimjon Hakimov. — Nafaqaga chiqib, uyda bekor qolgan damlarda qon bosimim 200-220 bo‘lgan, ko‘p bor davolandim, samarasi yaxshi bo‘lmadi, kasallik tez-tez xuruj qilardi. Sog‘lom hayot tarziga amal qilib, sport bilan shug‘ullanishni odat qilgach, barcha dardlardan forig‘ bo‘ldim. Qon bosimim me’yorlashdi, ishtaham ochildi, ortiqcha vazndan xalos bo‘ldim, tiniqib uxlashga odatlandim. Hozirgi yoshimda ham velosipedda 150-200 kilometr yo‘lni bemalol bosib o‘ta olaman. Mahallamizda “Workout” maydoni qurildi. Bu yer sport va sog‘lom hayot tarziga oshno bo‘lgan nuroniylar, sportsevar yoshlar bilan hamisha gavjum. Shahar va qishloqlar bo‘ylab velosipedda sayr qilib yurganimizni ko‘rgan yoshlar bizga havas qiladi. Jamoamizning eng keksa a’zosi bu yil 84 yoshga kirdi.

Velosiped minib, o‘z salomatligini tiklab, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda namuna bo‘layotgan nuroniylar safi kundan kunga kengayib bormoqda. Ular, avvalo, o‘z oilasi, mahallasidagi nuroniylar, ko‘plab yoshlarga ibrat bo‘layotir. Yoshlar esa velomarafonchi otaxonlar izidan borib, ularga hamrohlik qilishga odatlangan.




Nuroniylar bugunga qadar yurtimizning so‘lim dam olish maskanlari, tarixiy qadamjo va ziyoratgohlar bo‘ylab sayohatlarda bo‘lib qaytdi. O‘tgan yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ylab sayohatlar uyushtirishdi. Bundan tashqari, Qirg‘izistonning O‘sh, Jalolobod, Novkent, Qozog‘istonning Turkiston shaharlariga velosipedda borishdi.

Mashrabjon Musayev ham sog‘lig‘idan ko‘p shikoyat qilardi. Davo topish ilinjida u uchramagan shifokor, ichmagan dorisi qolmadi. Nuroniy do‘stlari tavsiyasi bilan velosiped minishga ishqiboz bo‘ldi-yu yillar davomida qiynab kelayotgan barcha dardlaridan qutuldi.

— Nafaqa pulimning aksariyatini dori-darmon xarid qilishga sarflardim, — deydi yetmish yoshli mo‘ysafid. — Uch yildirki, sog‘lom turmush tarziga amal qilib, sog‘lig‘imda ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Hech qanday shikoyatim yo‘q, dori-darmonga muhtoj emasman. Kuniga 5 kilometr piyoda yurishga odatlandim, 15-20 chaqirim yo‘lni velosipedda bosib o‘taman. Dam olish kunlari mahallamizdagi velosipedchilar guruhi bilan 50-60 kilometr yo‘l yurib, sayohatlarga boramiz. Kuz-qish mavsumida sport zallari, suzish havzalariga borishni odat qilganmiz. Umuman, sport sog‘liq, cho‘ntakka ham foydali ekanini anglab oldik.

Sog‘lom hayot orqali salomatligini tiklab, jamiyatning faol a’zosiga aylangan nuroniylarning yana biri Ismoiljon Ro‘ziboyev bo‘ladi. U bel va oyoqlari tez-tez og‘rishidan shikoyat qilib kelgan. Shifokor muolajalarini olgach, kasallikni bir dam unutganday bo‘ladi, bir oz vaqt o‘tib, bu holat yana takrorlanadi. Piyoda yurish, jismoniy mashq va velosipedda harakatlanishga odatlanganidan buyon xastalikni unutdi.

— Avvallari keksa yoshdagilarning sport bilan shug‘ullanishi uchun yetarli sharoit va imkoniyatlar yo‘q edi, — deydi To‘lqinjon Mamatov. — Bo‘sh vaqtlarimizning aksariyatini choyxonalar, dam olish maskanlarida o‘tkazishga ko‘nikib qolgandik. Endi imkon qadar sport maydonlariga borishga harakat qilyapmiz. Chunki chekka qishloqlarda ham zamonaviy sport maydonlari, velosipedda harakatlanish yo‘lakchalari qurilayotgani ayni muddao bo‘ldi. Inson o‘z sog‘lig‘iga befarq bo‘lmay, uni asrash uchun intilishi, mavjud imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rganishi kerak. Buni o‘z hayotim, sog‘lig‘im misolida tushunib oldim.

Atrofiga o‘ziga o‘xshash sog‘lom turmush tarzi tarafdorlarini jamlagan Karimjon Hakimovning sport targ‘iboti yo‘lidagi faol harakati besamar ketmadi. 2020-yil “Sport faxriysi” medali, 2021-yil “Mehnat faxriysi” 1-darajali ko‘krak nishoni, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni, 2023-yilda “Sog‘lom turmush” medali bilan taqdirlandi. Bu e’tirof jamoatchi sportchini har jihatdan ruhlantirdi, yangi tashabbuslarga undadi. Ayni kunda velosport yo‘nalishida mahalla ayollar guruhi faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi.

Farg‘ona viloyati hokimligi, viloyat sport boshqarmasi faxriy sportchilarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Ularni mavsumiy sport kiyimlari bilan ta’minlab, velosayohatlar uyushtirishga ko‘maklashmoqda.

Sirasini aytganda, sog‘lom hayot yo‘lidagi islohot va ezgu tashabbuslar yurtimizda sog‘lom turmush tarziga amal qilish imkonini bermoqda. Shunday ekan, piyoda yuring, yuguring va albatta, velosiped minishga odatlaning. Bu siz va bizni sog‘lom turmush tarzi tomon yetaklaydi.

**Rasuljon KAMOLOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33  Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98  E-mail: info@yuz.uz  Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-146.
37560 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 23:20  Topshirildi — 23:25